Kalit so'zlar : *diqqat yetishmasligi sindromi, giperaktivlik ,impulsivlik, bo'sh o`zlashtirish, nutqiy buzilishlar.*

Annotation. *The reasons of poor progress and the ways of correction of cognitive process of junior school pupils are considered in the given article. Psychological peculifrities of children with Attention Deficit Disorder and hyperactivity are investigated.*

Key words*: cognitive process, school pupils,article.Psychological peculifrities , hyperactivity, investigated.*

Аннотатция. *В статье рассматриваются причины неуспеваемости и способы коррекции познательного процесса учеников младшего школьного возраста. Исследуются психологические особенности детей с синдромом дефецита внимания и гиперактивности.*

Ключевыеслова: *синдром нехватки внимания, гиперактивность, имплизивность, неуспеваемость, рече-вые растройство.*

Kirish. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari,ularning o'quv-biluv faoliyatini amalga o'shirishdagi o'ziga xosliklar ham chet ellik hamda mamlakatimiz psixologlari tomonidan

tatqiqot ob'ekti sifatida o'rganilgan.Ilmiy tatqiqotlar natijasida keltirilgan xulosalar o'quvchilarning o'quv motivlari,o'quv topshiriqlar,baho olishga bo'lgan ishtiyoq va xohish,o'quvchining ta'lim olishga bo'lgan munosabati,layoqati,uquvlilik darajasi va tirishqoqlik kabi masalalar ham o'z ifodasini topgan.

Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar haqida fikr yuritganda, dastlab ulardagi bilish jarayonlari tavsifiga diqqat qaratish kerak. E.G'.G'oziyevning "Tafakkur psixologiyasi", "Psixologiya metodologiyasi" risolasi, M.G.Davletshinning "Yosh va pedagogik psixologiya"darsligi, Sh.A.Do'stmuhamedovaning "O'qituvchilarning o'quv faoliyatlarini boshqarish psixologiyasi" uslubiy qo'llanmasida ushbu muammoli masala o'z ifodasini topgan.

E.G'G'oziyev o'quvchilarning bilish faoliyatini tashxislashda muhim bo'lgan komponentlar bilan bir qatorda bo'sh o'zlashtirishning asosiy sabablari ham mavjudligini ta'kidlab o'tgan. O'quvchilar sinfida bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar mavjud bo'lsa, ularning bilish jarayonlaridagi muammolar,kamchiliklar ularning sinfdoshlaridan orqada qolish jarayonini yuzaga keltiradi.Bu esa sinfning sifat ko'rsatgichiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, maktab o'quvchilaridagi bo'sh o'zlashtirish sabablari va o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini o'rganish, ularning bilish jarayonini korrektsiya qilish pedagogik psixologiya yonalishidagi dolzarb masalalardan biridir. E.G'ozievning fikricha,bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni shartli ravishda, pedagogik qarovsizlar o'quvchilar; intellektual sustlar; uquvchanligi past o'quvchilarga ajratish mumkin.

-Birinchi toifaga mansub o'quvchilarning orqada qolishining asosiy sababi bilim zahirasi yetarli bo'lmagan, noqulay pedagogik sharoit, "minimal me'yor" talablariga javob bermaslikdir. Shu sababli, bu toifaga o'qishni xohlamaydigan va o'quv

faoliyati usullarini egallamagan o'quvchilar kiradi.

-Ikkinchi toifadagi o'quvchilarning bo'sh o'zlashtirishiga ijtimoiy va pedagogik omillar ta'sir qiladi, bular bolada bilish va intellektual faollikning shakllanishiga to'sqinlik qiladi.

-Uchinchi toifadagi o'quvchilar kam xarakat,kamgap,tortinchoq,sust,uquvlilik darajasi pastligi bilan ajralib turadi. Pedagog va psixologlar tomonidan maktab yoshidagi o'quvchilarning bo'sh o'zlashtirishni sabalari o'rganilgan bo'lib, quyida ularning asosiylari keltirib o'tamiz:

1.Pedagogik sabablar-O'quvchilarda o'quv motivlarining to'liq shakllanmaganligi. O'qituvchi tomonidan dars berish darajasining pastligi.O'qituvchining o'quvchilarga nisbatan salbiy munosabatda bo'lishi. O'qituvchi tomonidan o'quvchinng individual- tipologik xususiyatlarning inobatga olinmasligi hamda o'quvchilarga individual yondashmasliklikdir.

2. Psixologik sabablar- O'zini- o'zi ixtiyoriy boshqarish usullaring shakllanmaganligi.Oquvchining diqqat ko'lamining torligi.Diqqatining tarqoqligi va beqarorligi.Mexanik yoki uzoq muddatli xotiraning pastligi. O'ziga –o'zi past baho berishi hamda uquvsizlikni ko'rsatish mumkin.

3. Neyrofiziologik sabablar-Bilish jarayonidagi nuqsonlar,ko'rish,eshitish hamda nutqidagi kamchiliklar,barmoqlardagi mayda motorikaning sust rivojlanganligi. umumiy intellektidagi kamchilik va muammolar shular jumlasidandir.

E.G".G'oziyevning bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning yoshga oid o'ziga xosligi haqidagi tadqiqotlarida aniqlanishicha, bo'sh o'zlashtirish va o'ziga xos xulq- atvor , ko'p holatlarda, o'quv yilining boshida namoyon bo'lib, 1- sinfning boshidayoq 25-30% o'quvchilar o'qish, yozish va hisoblashni bo'sh darajada o'zlashtirishlarini ko'rish mumkin. Nutqi va sensomotorikasining rivojlanishi orqada qolgan bolalarga boshlang'ich sinfdayoq o'qituvchi tomonidan alohida e'tibor qaratilishi lozim, aks holda, ular o'qish va yozish ko'nikmasini egallay olmay qolishlari

mumkin. Bu, ayniqsa, o'quvchining o'z ona tili va chet tillarni o'zlashtirishida jiddiy muammolarga sabab bo'ladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda umumiy orqada qolishning pedagogik- psixologik tipologiyasini ko'rib chiqamiz.Ularni shartli ravishda A,B,D tiplarga ajratamiz.A-tipdagi bola, o'quv faoliyatida harakatchanligi bo’sh darajada bo’ladi. Bunday vaziyatda o’quvchi haqida shunchaki” ishlamaydi”;

B-tipdagi bola, o'quv faoliyatida kam samaraga erishadi. Bunda o’quvchi o'quv topshiriqlariga ko'p mehnat va kuch ishlatadi, lekin uddalay olmaydi;

D-tipdagi bola, o'quv faoliyatida kam harakatli va kam samaraga erishadigan bolalar.

Yuqoridagi har bir xulq- atvor toifalari ichida yana quyidagi psixologik-pedagogik toifalarni ko'rish mumkin.

Birinchi toifadagilar uchun quyidagilar xos:

- Maktabda turli ko'rinishdagi faolliklarga qaratilgan yaqqol namoyon bo'luvchi yo'nalganlik bilan bir qatorda, o'qishga nisbatan mustahkam motivlarning yo'qligi;
- hisssiy – irodaviy sohada alohida funktsiyalarning biroz buzilishi;
- hisssiy- irodaviy soha rivojlanishining orqada qolishi;

O'quv faoliyatida kam harakatli bolalarning umumiy xarakter belgilari quyidagicha: o'quv materiallarini idrok etishda diqqat qilmaslik , darsga qatnashmaslik yoki yaqqol intizomsiz xulq- atvor, topshiriqni juda sekin bajarish.

O'quvchining o'quv faoliyatiga sarflaydigan qunt va kuchi juda cheklangan vaqtiga yetadi. Shu bilan birga , bu toifadagi o'quvchilar bilish jarayonlarining darajasi maktab dasturini qoniqarli darajada o'zlashtirishlari uchun yetarlidir. Xulq-atvor ustunlik qiluvchi motivlarini o'zining obro'li tengdoshlari tomonidan tan olinishida , faollik va amaliy faoliyatda o'z shaxsini namoyon etish ehtiyojida ko'rish mumkin. Bu ehtiyojni o'quv faoliyatida qondira olmaydi, shuning uchun bola o'z shaxsini turli xildagi maktabdan tashqari mashg'ulotlarda

ko'rsatishga harakat qiladi. Maktab ta'limi motivining shakllanmaganligiga sabab ota- ona tomonidan e'tibor yetishmasligi, unga o'qituvchilar tomonidan individual yondashuvning yo'qligi, tez va sezilarli natija berishda o'z amaliy faoliyatini ko'rsatishga harakat qilishda tarbiyaviy xolatiga suyana olmasligidir.

Ikkinchi toifadagilar uchun quyidagilar xos:

- bilish qobiliyatlarini rivojlanishining bo’sh darajasi;
- asab tizimining inertligi;
- uzoq vaqt davom etgan kasallik yoki oilada nosog'lom turmush tarzi sabab o'qishdagi uzilishlar. O'quv faoliyatida kam samaraga erishuvchi bolalarning asosiy xulq- atvori belgilari: bola juda ko'p kuch sarflaydi, lekin topshiriqni bajarishning uddasidan chiqolmaydi. Bu toifadagi bolalarni ajratib turuvchi belgi- bilish qobiliyatlari yetarli darajada rivojlanmaganligiga qaramay, o'qishga xoxishning yaqqol nomoyon bo'lishidir. Odatda, bunday xolat 1- sinfda kuzatiladi. O‘quvchilar bolaning maktabga tayyor emasligini, xususan, o'qishni bilmasligi, son va harflarni tanishmasligi, hayotiy tasavvurlar zahirasining chegaralangani, eng oddiy materialini tushunmasligini bot- bot takrorlaydi. Shunga qaramay, bola topshiriqni bajarishga harakat qiladi. Odatda bilish jarayoni qobiliyatining yetarli emasligi sababli boladagi nutqiy va hissiy tajribaning qashshoqligi, ota-onaning madaniyat darajasi, ota-onalik muxabbati va g'amxo'rligining yetishmasligi yoki bosh miyaning kichik jarohati va boshqa sabablar bilan bog'liqdir.

Uchinchi toifadagilar uchun quyidagilar xos:

- o'quv faoliyatining bo’sh samaradorligi tufayli yuzaga keladigan bo’sh intensivlik;
- aktab ta'limining boshlang'ich bosqichidagi bo’sh intensivlik bilan shartlangan o'quv faoliyatining bo’sh samaradorligi;
- Bir vaqtning o'zida o'quv faoliyatida bo’sh jadallik va bo’sh samaradorlik alomatlarining namoyon bo'lishi.

Bo’sh o'zlashtirishni keltirib chiqaruvchi omillardan yana biri bu

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda diqqat yetishmasligi sindromi va giperaktivlik bo'lib, bu muammo chuqur o'rganishni talab etadi, chunki ushbu muammo o'quvchilarda o'quvch faoliyatini amalga oshirish, bilish jarayonlarining rivojlanishi, muloqot ko'nikmalarining shakllanishi, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishda bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Dars vaqtida bunday bolalar topshiriqni bajarishi juda qiyin kechadi, chunki ular ishni tashkil qilish va tugutishga qiynaladilar, topshiriqni bajarish jarayonida tezda chalg'iydi. Ularning o'qish va yozish malakasi tengdoshlarinikiga nisbatan bo’shdir. Ularning yozuvlari pala- partish va diqqatning yetishmasligi , o'qituvchining ko'rsatmasini bajarmalik yoki o'ylab topish natijasi bo'lmish xatolar bilan tavsiflanadi.

Ushbu yonalish bo’yicha M.G.Davletshin va S.To’ychiyevaning tadqiqlari natijalariga ko'ra, bu bolalarning xatti- harakatida muammolar bog'cha davridayoq yuzaga keladi, bundan tashqari idrokdagi qiyinchiliklar aniqlangan bo'lib, ularda nutqiy buzilishlar, disgrafiya, disleksiya, motorika, sensomotor koordinatsiya va qo'l harakatining epchilligida nuqsonlar kuzatiladi. Sh.Do’stmuhamedova tomonidan diqqat yetishmovchiligi sindromi va giperaktiv bolalarda nutq faoliyatining o'ziga xosliklari tadqiq etilgan bo'lib, olingan natijalarga ko'ra, olimaning ta'kidlashicha, ushbu bolalarning nutqi o'ziga xos jihatlarga egadir. Ya'ni bolalarda aynan idrok, diqqat, tafakkurning bo’sh darajasi, grammatik qurilishini tushunishning buzilganligi, birlik va ko'plikdagi so'zlarni qo'llashda noaniqlik, matnni tushunish va aytib berishda fikriy nuqsonlar , grammatik qurilishni noaniq qayta tiklash (imitatsiya) va nomlar variatsiyasini noto'g'ri ajratish kabilar aniqlangan. Jumladan, bolalarning nutqiy ko'rsatkichlari bilan bilish sohasining o'ziga xosligi o'rtasida ahamiyatli korrelatsion aloqaning mavjudligi aniqlangan. Bu holat esa ushbu toifadagi bolalarning nutqi va psixik jarayonlarini bir butunlikda rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish zaruratini paydo qiladi.

Bilish jarayonidagi yaqqol buzilishlar eshituv organidagi buzilishlar bilan bog'liq. Eshituv organidagi o'zgarishlar ketma-ketlikdagi tovushlar qismlaridan iborat bo'lgan tovushlar kompleksini to'g'ri baholay olmaslik va ko'ruv idrokidagi kamchiliklar, tushunchalarning hosil bo'lishidagi qiyinchiliklar tafakkurning infantilligi va noaniqligi kuzatiladi. Agar nutqning boshqaruv funqsiyasi buzilgan bo'lsa, bu holda kattalarning nutqi bolaning faoliyatini boshqarishda kamdan- kam ta'sir ko'rsatadi. Bu esa u yoki bu aqliy operatsiyalarni ketma- ket bajarishdagi qiyinchiliklarga olib keladi. Bola o'zining xatolarini sezmaydi, so'nngi topshiriqni unutadi, ikkichi darajali assotsiatsiyalarni to'xtata olmaydi.

Ayniqsa, diqqat tanqisligi sindromi va giperaktivlik mavjud bo'lgan bolalarda tez- tez shunday nutqiy buzilishlar bo'ladi, ya'ni nutqning rivojlanishida orqada qolish, artikulatsion appparat motor funksiyasining yetishmovchiligi, nutqning ortiqcha sekinlashuvi yoki, aksincha, tezligi, duduqlanish, tovushning va nutqiy nafasning buzilishidir. Bu buzilishlar nutqning tovush talaffuzi qismi, uning fanatsiyasi, lug'ati va sintaksisning cheklanganligi, semantikaning yetishmasligi bilan shartlanadi.

Demak, bo’sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning boshqa toifalariga nisbatan, diqqat tanqisligi sindromli va giperaktiv o'quvchilarda turli xil nutqiy muammolar, diqqatning barqaror emasligi, idrokdagi kamchiliklar chet tillarni o'zlashtirishda ko'proq qiyinchiliklarni keltirib chiqarib, ushbu toifadagi o'quvchilar ta'limi alohida e'tiborni talab etadi. Bu esa ularga ta'lim berish jarayonini qiyinlashtiradi va pedagogni bunday bolalarga yordam berish usullarini qidirishga majbur qiladi. Birinchi bosqichda individual, keyin esa guruhiy ish amalga oshirilishi mumkin. Ushbu toifadagi bolalarni mualliflar shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo'ladi: vizual jihatdan rivojlangan, biroq eshitish ko'nikmalari bo’sh, vizual ko'nikmalari bo’sh, biroq eshitish ko'nikmasi rivojlangan bolalar, ikkala ko'nikmalari bo’sh rivojlangan bolalar.

Bola topshiriqni bajarayotgan vaqtda pedagog yoki kattalar bolaning

o'quv harakatlarini bosiq ovoz bilan izohlab , nazorat qilib borishlari muhim hisoblanadi. O'quv mashg'ulotlarini tashkil qilishda o'qituvchilar ushbu sindromli o'quvchilarga alohida e'tibor qaratishlari zarur bo'ladi. Jumladan, dars davomida bolaning diqqatini chalg'ituvchi omillarni kamaytirish va bolani o’qituvchi qarshisidagi qatorga, ya'ni o'qituvchiga yaqinroq partaga o'tkazish, darsda berilayotgan topshiriqlarni doskaga yozib qo'yish , ma'lum vaqt oralig'ida faqat bitta topshiriq berish, katta topshiriqlarni qismlarga ajratib berish va har bir qismni bajarilishini nazorat qilish kerak. Bola bilan muloqotning emonsional bir maromda bo'lishi, doimiy ravishda rag'batlantirib borish bolaning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini mustahkamlashga yordam beradi. Shunday ekan, ushbu sindrom qanchalik ertaroq aniqlansa va psixokorretsion, rivojlantiruvchi tadbirlar amalga oshirilsa, ular yaxshi o'zlashtiruvchi tengdoshlari qatoridan joy olishi ta'minlanadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1.M.G.Davletshi.S. To’ychiyeva.Yosh va pedagogik psixologiya.T.:2004

2..E.G’.G’oziyev. Tafakkur psixologiyasi.T.:Universitet.2006.

3.E.G’.G’oziyev. Psixologiya fani metodologiyasi.T.: Universitet.2002

4. Sh.A.Do’stmuhamedovaning “O’qituvchilarning o’quv faoliyatlarini boshqarish psixologiyasi” T.: 2000.

10-SINFDA "O'ZBEKISTONNING GEOEKOLOGIK MUAMMOLARI" MAVZUSINI O'QITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH

Palvanova Dilnoza To'rayevna
Xorazm viloyati Urganch tumani 24-sonli maktabning geografiya fani o'qituvchisi
Matsolayeva Madina Qurbonboyevna
Xorazm viloyati Urganch tumanidagi 46-sonli maktabning geografiya fani o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6499992

ANNOTATSIYA: *Ta'lim sohasida yuz berayotgan o'zgarishlar qatorida pedagogik texnologiyaning mazmun-mohiyati, metodlarning zamon talabiga mos ravishda yanada takomillashib borayotganini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Bugun mamlakatimizga mos milliy va zamonaviy pedagogika vujudga kelayotgani va uning bosh vazifasi - insonga xizmat qilish, tarbiya va hayot munosabatlarini uyg'unlashtirishdir. Ma'lumki, geografiya dars jarayonlari o'quv materiallari, xaritaga, turli ko'rgazmali o'quv qurollarga, shuningdek muayyan geografik obyektga bog'lab o'rgatilishi bilan boshqa o'quv fanlaridan ajralib turadi. Geografiya darslarida tabiiy ko'rgazmalardan, ilmiy asoslangan, daliliy materiallardan foydalanish geografiya fanini o'rganishga bo'lgan qiziqishni hamda e'tiborni yanada oshiradi.*

KALIT SO'ZLAR: *geografiya dars jarayonlari o'quv materiallari, xaritaga, turli ko'rgazmali o'quv qurollarga, zamonaviy pedagogika.*

Ta'lim-tarbiya metodlari esa, mohiyatan va mazmunan fanni o'qib o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshiradi. O'qitish jarayonida aniq maqsadga erishish, qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasining o'qituvchi tomonidan o'quvchilar ongiga yetkazib bera olsagina ko'zlangan maqsadlarga erishishga xizmat qiladi. Endi ―O'zbekistonning geoekologik muammolari mavzusini dars jarayonida yoritishning usul va uslublariga to'xtaladigan bo'lsak, eng avvalo, o'quvchilarni oldindan kelgusi dars jarayoniga tayyorlash zarur bo'ladi. Misol uchun:

—O'zbekistonning geoekologik muammolari mavzusiga oldindan tayyorgarlikka ega bo'lishlari,ya'ni bizning diyorimizda qanday geoekologik muammolar borligini o'rganib kelishlari,oldingi darsda topshiriq sifatida berib yuboriladi. Dars boshlanganda o'quvchilarda dars jarayoniga oldindan tayyorgarlik bo'lib,ularga qisqartirilgan tarzda 20 minutlik taqdimot,tarqatma materiallar (geoekologik muammolardan tuzilgan savollar, siz bilasizmi turkumida) va ko'rgazmali qurollar yordamida quyidagi materillar orqali mavzu tushuntirib beriladi. Geoekologik muammolar-insonlarning sog'ligi va xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan, ularning tabiiy muhit bilan munosabatlarda va geotizimlarning bir butunligida nomutanosiblikni keltirib chiqaruvchi, tabiiy va antropogen omillar natijasida yuzaga kelgan jarayonlar va hodisalar hisoblanadi.

Darsning qolgan 25 daqiqasining 15 daqiqasini turli xil interfaol metodlar yordamida, ya'ni —Aqliy hujum, — Blits savol-javob (tezkor savollarga tezkor javob), — Bumerang (otilgan bumerang tayoqchasining o'ziga qaytib kelganidek, berilgan savol, savol beruvchiga kelishi, uning o'zi uni to'ldirishi bilan yakunlanadi) va guruh-larda ishlash metodlari orqali o'tkazib o'quvchi-yoshlar xarita-sida mavzuni mustahkam muhrlab qo'yish mumkin. — Aqliy hujum metodidan foydalanib dars mashg'ulotini tashkil etish qay tariqa amalga oshiriladi. Oldindan savollar mavzu doirasida tuzib kelinadi. Mavzuni yoritish jarayoni bilan ham yakunlangandan keyin ham qo'llanishi mumkin, shunda savollarga javob berayotgan o'quvchida beixtiyor esda olib qolish fenomeni ishga tushib, avtomatik tarzda xotirada saqlanadi. Buning natijasida esa ta'lim samaradorligi oshadi. —Aqliy hujum metodini qo'llashda quyidagicha, oddiylikni kasb etuvchi savollardan foydalaniladi.

Savollar:

1. Geologik muammolar deganda qanday muammolarni tushunasiz?

2. Ular qanday yuzaga keladi?

3. Ularning ta'sir doirasi va ko'lamiga ko'ra global,mintaqaviy va hududiy qismlarga ajrating?

4. O'zbekiston hududida mavjud geoekologik muammolarni sanang.

5. Ular inson va tabiat omilida vujudga kelishiga qarab ikki guruhga ajrating.

6. Geoekologik muammolarni yechish imkoni bormi? va shunga o'xshash savollar.

—Blits savol-javob metodidan foydalanish asosan 20 daqiqalik qisqacha dars bayonidan keyin 15 daqiqada amalga oshiriladi. Bu metod qisqa savollarga, qisqacha tez javob berish uslubi bo'lib, o'quvchilar jamoasida qo'llanilsa, raqobat muhitini shakllantirib, javob berishga bo'lgan motivni oshiradi.

Savollar quyidagicha tuziladi:

1. Geoekologik muammolarning qanday turlarini bilasiz?

2. Sayyoraviy geoekologik muammolarga qanday muammolar kiradi?

3. Regional geoekologik muammolarga qanday muammolar kiradi?

4. Lokal geoekologik muammolarga qanday muammolar kiradi?

5. Orol dengizining qurishi qanday muammolar sirasiga kiradi?

5. Geoekologik muammolarni yechimining ilmiy asoslari qanday prinsiplardan iborat?

—Bumerang metodida darsning 15 daqiqasini o'tkazish xaritasi uchun oldindan savollar tuzilib, sinf o'quvchilari guruhlarga ajratiladi hamda birinchi guruhga savol beriladi. 2 va 3-guruhlar to'ldiruvchi bo'lib, 2-guruh savoliga 3 va 1-guruhlar, 3-guruh savoliga 1va 2-guruhlar to'ldiruvchi bo'ladi. Qaysi guruh javobi to'liq bo'lib unga qo'shimcha qo'shishga hojat qolmasa, ixtiyoriy tarzda shu guruh ball nisbatida,berilgan bir necha savollar yuzasidan a'lochi bolib oladi, qolganlari o'rta va past darajaga ajratiladi, shunga qarab ularni baholash mumkin.

Metodlarni qo'llash jarayonida o'quvchilarning hammasini qamrab olish talab etiladi. O'zlashtirishi past o'quvchilar chetda qolib, faol o'quvchilar javob berishi kerak emasku, asosiy maqsadimiz hamma o'quvchilarda shu mavzu yuzasidan bilimlar hosil qilish.

Darsning qolgan 10 daqiqasining yarmini bo'lib o'tgan dars muhokamasiga bag'ishlanadi. Ya'ni darsning tashkiliy jarayoni, javoblari noaniq qolgan savollarga va tushinilmay qolgan qismi bo'lsa, tushuntirishga, qolgan 5 daqiqasida o'quvchilar baholanib uyga vazifalar beriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, dars jarayonini bunday interfaol usullar orqali tashkil etish, dars mashg'ulotlarida qatnashayotgan barcha o'quvchilarda qiziqish uyg'otishi tabiiy. Agarda shunday metod-larda dars jarayonlari tashkil etilsa, o'quvchilar keyingi bo'lajak darsni intiqlik va kuchli tayyorgarlik bilan kutishadi. Biz pedagoglar esa, o'zimizning oldimizga qo'ygan maqsadni to'liq bajargan va maqsadimizga erishgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Sharipov,V.N.Fedorko,N.I.Safarova,V.A.Rafiqov.Geografiya 10-sinf darsligi.Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 146-150 betlar.

2. A.Rafiqov va boshqalar.Amaliy geografiya akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. "Sharq" nashriyoti, 2014. 94 bet.

3. P.G'ulomov va boshqalar. Geografiya 7-sinf darsligi."O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2017 . 166 bet

TEKISLIKDA AKSLANTIRISHLAR VA ALMASHTIRISHLAR

Abjalilov S.X.
NavDPI dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi
Kamolov N.M.
BuxDU magistranti
Xo`jamova D.S.
NavDPI talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6503504

Annotatsiya: *Mazkur maqolada analitik geometriyaning muhim masalalaridan biri bo`lgan tekislikdagi akslantirishlar va almashtirishlar hamda ularning xossalari haqida mulohaza yuritilgan.*

***Tayanch so`zlar:*** *Akslantirish, almashtirish, obraz, proobraz, in'yektiv, sur'yektiv, biyektiv, gruppa, kommutativ gruppa, qism gruppa, invariant nuqta, invariant figura, teskari almashtirish, almashtirishlar ko`paytmasi.*

Akslantirishlar va ularning turlari, almashtirishlar matematikaning turli bo`limlarida fan ehtiyojlari nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda o`rganiladi. Talabalar o`zlarining qiziqishlari yo`nalishida akslantirishlar va almashtirishlar haqida ma'lum ma'lumotlarga ega bo`lishadi. Natijada mazmunan berilgan aniq savollarga javob berishda ularning ikkilanishlari yoki xato javob berishi kuzatiladi. Ushbu kamchiliklarni batamom bartaraf etishda geometrik tasvirlar orqali tasavvurni hosil qilish katta ahamiyat kasb etadi [1,2].

Bizga bo‘sh bo‘lmagan X va Y to‘plamlar berilgan bo‘lsin.

Ta'rif. X to‘plamning har bir x elementiga biror bir qoida bilan Y to‘plamning biror (yagona) y elementi mos keltirilgan bo‘lsa, X to‘plam Y to‘plamga *akslangan* deyiladi. Odatda akslantirish $y = f(x)$ ko`rinishida ifodalanadi.

Akslantirishda $x \in X$ elementga $y \in Y$ element mos keltirilgan bo‘lsa, y elementga x elementning *obrazi* (aksi), x elementga esa y elementning *proobrazi* (asli) deyiladi.

1-misol. Koptok (shar) va uning yerdagi soyasini (doira) qaraylik. Koptokka tegishli nuqtalar to`plami X, uning tekislikdagi soyasiga tegishli nuqtalar to`plami Y to`plam bo`lsa, X to`plamni Y to`plamga o`tkazuvchi moslik (quyosh nuri yo`nalishi) akslantirish ta'rifiga to`la javob beradi. Demak, ushbu moslik akslantirish bo`lar ekan (1-chizma).

Yuqoridagi moslikning teskarisi, ya'ni, Y to`plamni X to`plamga o`tkazuvchi moslik akslantirish bo`la olmaydi. Chunki, Y to`plamning har bir elementiga X to`plamda bittagina emas cheksiz ko`p nuqtalar mos keladi.

Akslantirishlarning in'yektiv, sur'yektiv va biyektiv turlari uchun ta'riflarni keltiramiz:

- ✓ $f: X \to Y$ akslantirishda $x_1 \neq x_2$ (turli proobrazlarga) uchun $y_1 \neq y_2$ (turli obrazlar) bo`lsa, bunday akslantirish *in'yektiv*;
- ✓ $f: X \to Y$ akslantirishda $\forall y \in Y$ uchun proobraz mavjud bo`lsa (kamida bitta), bunday akslantirish syur'yektiv;
- ✓ bir vaqtda ham in'yektiv, ham syur'yektiv bo`lgan akslantirish *biyektiv* (bir qiymatli) akslantirish deyiladi.



1-misolda berilgan akslantirish turi sur'yektiv, chunki har bir nuqta yagona obrazga ega va istalgan obrazning proobrazi bo`sh to`plam

emas. Akslantirish in'yektiv bo`la olmaydi, chunki nur yo`nalishidagi shar kesmasining turli nuqtalariga birgina nuqta mos keladi.

2-misol. To`g`ri burchakli uchburchakning gipotenuzasiga tegishli nuqtalar X, bir katetiga tegishli nuqtalar Y to`plam bo`lsin. Gipotenuzadagi nuqtalarni ushbu katetga ortogonal proyeksiyalashni f akslantirish deb qaraylik. Akslantirish turini aniqlang.

Yechish. Ta'riflardan akslantirish ham in'yektiv, ham sur'yektiv ekanligini ko`rish mumkin. Demak, akslantirish biyektiv bo`lar ekan.

3-misol. Markazi to`g`ri chiziqda va shu to`g`ri chiziq bilan chegaralangan yarim aylanaga tegishli nuqtalar X to`plam, to`g`ri chiziqqa tegishli nuqtalar esa Y to`plam bo`lsin. Bu yerda akslantirish yarim aylana nuqtalarini to`g`ri chiziqqa ortogonal proyeksiyalash bo`lsa akslantirish turini aniqlang.

Yechish. Akslantirish in'yektiv bo`ladi, chunki turli proobrazlarga turli obrazlar mos keladi. Akslantirish syur'yektiv bo`la olmaydi, chunki to`g`ri chiziqning diametrdan tashqaridagi nuqtalariga mos proobrazlar yo`q (2-chizma).



Yuqoridagi 3-misolda X to`plam yarim aylana emas, balki aylana nuqtalari, Y to`plam esa uning markazidan o`tuvchi to`g`ri chiziq nuqtalari bo`lsin. Akslantirish to`g`ri chiziqqa ortogonal proyeksiyalash olinsa, ushbu akslantirish inyektiv ham, syur'yektiv ham bo`la olmaydi.

Yuqorida akslantirishlar va ularning turlariga doir misollar ko`rib

o`tildi. Akslantirishlarning muhim sinfi almashtirishlar haqida so`z yuritamiz.

Ta'rif. X to`plamni o`z-o`ziga biyektiv akslantirish almashtirish deyiladi.

Tekislikning har bir $M(x;y)$ nuqtasiga shu tekislikdagi $M'(-x;y)$ nuqtani mos keltiruvchi akslantirish almashtirish bo`ladi. Chunki, bu yerda tekislikdagi har bir nuqtaga yana shu tekislikdagi biror nuqtani bir qiymatli mos keltirilishini ko`rishimiz mumkin.

Agar f almashtirishda $f(x) = x$ $(f(D) = D))$ munosabat bajarilsa, x element (D qism to'plam) f almashtirishning invariant elementi deyiladi.

Tekislik nuqtalarini unda berilgan O nuqta atrofida α burchakka burish almashtirish bo`lib, bittagina O nuqta ushbu almashtirishning *invariant nuqtasi* bo`ladi.

Tekislikda $\vec{a}$ vektor qadar parallel ko`chirish almashtirish bo`ladi va shu vektorga parallel yo`nalishdagi istalgan to`gri chiziq almashtirishning invariant to`g`ri chizig`i bo`ladi.

Invariant figura bu invariant nuqtalardan tashkil topgan figura deb aytish noto`g`ri tushuncha hisoblanadi. Almashtirishlarda invariant nuqta bo`lmasligi ammo invariant figura mavjud bo`lishi mumkin. Yuqoridagi parallel ko`chirishda invariant nuqta yo`q, ammo invariant to`g`ri chiziq mavjudligini ko`rishimiz mumkin.

Ta'rif. $\forall x \in X$ element uchun $f(x) = x$ bo'lsa, f almashtirishga aynan almashtirish deyiladi.

Nuqta atrofida 360^0 gradusga burish, biror to`g`ri chiziqqa nisbatan ketma-ket ikki marta simmetrik almashtirish, nol vektor qadar parallel ko`chirish kabilar aynan almashtirishga misol bo`ladi.

Ta'rif. $f(x) = y$ almashtirish uchun $f^{-1}(y) = x$ almashtirish teskari almashtirish deyiladi.

R to`plamni $R_+$ to`plamga o`tkazuvchi $y = a^x, (a > 0, a \neq 0)$ almashtirishga $R_+$ to`plamni R to`plamga o`tkazuvchi $y = log_a x, (a > 0, a \neq 0)$ almashtirish teskari almashtirish bo`ladi va aksincha.

Ta'rif. f_1 va f_2 almashtirishlarni ketma-ket bajarishdan hosil bo'luvchi f_3 almashtirish ushbu almashtirishlar

ko‘paytmasi deyiladi va $f_3 = f_2 f_1$ ko‘rinishda yoziladi.

f_1 almashtirish OX o`q bo`yicha, f_2 almashtirish esa OY o`q bo`yicha simmetrik almashtirishlar bo`lsin. Ularning $f_3 = f_2 f_1$ ko`paytmasini topamiz:

$$f_1 = S_{ox}: \begin{cases} x' = x \\ y' = -y \end{cases},$$

$$f_2 = S_{oy}: \begin{cases} x'' = -x' \\ y'' = y' \end{cases}$$

$$\Rightarrow f_3 = f_2 f_1: \begin{cases} x'' = -x \\ y'' = -y. \end{cases}$$

Yuqorida berilgan ikkita o`q simmetriyasining ko`paytmasi markaziy simmetriya bo`lar ekan (o`qlar ixtiyoriy to`g`ri chiziqlardan iborat bo`lganda ularning burishni igodalaydi).

Biror to‘plamdagi f_1, f_2, ... almashtirishlar to‘plamini G bilan belgilaylik.

Ta’rif. G to‘plam elementlari uchun

1. $f_1, f_2 \in G \Rightarrow f_2 f_1$,
2. $f \in G \Rightarrow f^{-1} \in G$

shartlar bajarilsa, G almashtirishlar to‘plami gruppa tashkil etadi deyiladi. G almashtirishlar gruppasi uchun $f_2 f_1 = f_1 f_2$ shart bajarilsa, G gruppa kommutativ yoki Abel gruppasi deyiladi.

G_1 to‘plam G to‘plamni qism to‘plami bo‘lib, bu to‘plam uchun yuqoridagi gruppa shartlari bajarilsa, G_1 gruppa G gruppaning qism gruppasi deyiladi.

Tekislikdagi har bir vektor qadar parallel ko`chirishlar to`plami gruppa hosil qiladi. Chunki, istalgan ikkita parallel ko`chirishni ko`paytmasi yig`indi vektor qadar parallel ko`chirish bo`ladi. Shu bilan birga teskari almashtirish tekislikdagi vektorga qarama-qarshi yo`nalishli vektor qadar parallel ko`chirish bo`ladi.

Tekislikdagi bir to`g`ri chiziqqa parallel vektorlar bo`yicha parallel ko`chirishlar to`plami ham gruppa hosil qiladi. Bu gruppa shu teiklikdagi barcha vektorlar hosil qilgan gruppani qism gruppasi bo`ladi.

Akslantirishlar va almashtirishlar bo`yicha keltirilgan ma’lumotlar keyingi almashtirishlar: harakat, o`xshashlik almshtirishi, affin almashtirishi va inversion

almashtirishlarni mukammal o`rganish
uchun zamin yaratadi.

Adabiyotlar

1. Н.Д.Додажонов, М.Ш.Жўраева Геометрия, 1-қисм. “Ўқитувчи”, Тошкент, 1996 й.
2. S.X.Abjalilov, N.Ibodullayeva, Tekislikda harakatlar va ularning analitik ifodasi, PEDAGOGIK TA’LIM, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 3-son, 2011 yil, 52-55b, ToshDPU.
3. S.X.Abjalilov, D.N.Ashurova, O.A.Begmurodov ON MODELING OF MECHANICAL VIBRATIONS OF ORTHOTROPIC BOARDS IN ELECTRONIC DEVICES, ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) Vol. 11, Issue 4, April 2021



THE EFFECT OF DIGITAL GAMES IN TEACHING VOCABULARY IN EFL CLASSES.

Fazliddinova Zulfiya Dilmurod qizi
Student of English filology,
Namangan state university,
Namangan region, Uzbekistan.

https://doi.org/10.5281/zenodo.6503577

Abstract *Digital games have become increasingly important in the lives of the younger generation and technology used in various fields, particularly in education. It showed considerable effects in language acquisition. Learning vocabulary was one of the complex and tedious activity, but through digital, vocabulary can be attractive and more efficient activity in language acquisition of EFL young learners. Additionally, researchers have initiated a series of studies to see if employing games in the classroom might help students learn new words. Based on a literature study, the purpose of this research is to explore the effects of digital games on children's vocabulary development. The findings of this article demonstrate that games are utilized not just to help children succeed in EFL lessons, but also to motivate them and increase collaboration among them.*

Keywords: *vocabulary,digital games, effects, benefits.*

Introduction

Reading, speaking, listening, and writing are all linguistic abilities, and vocabulary is one of them. Neither language production nor understanding would be feasible without a good command of the vocabulary. As a result, expanding one's vocabulary is one of the conditions for language learning, and expanding one's vocabulary is only achievable when teachers employ efficient vocabulary teaching and learning tactics (Mukoroli, 2011).

Technology provides a variety of ways to make education more engaging while also increasing productivity, particularly in countries where there are few or no opportunities to interact with native speakers and practice the

language acquired. Students begin learning English at an early age, and employing multimedia to capture their attention is an excellent method to fulfill both their visual and aural senses. Technology, particularly the internet, which is employed in many schools, allows students and instructors to study anywhere and at any time, and knowledge is constantly available to them (Hazar, 2020). Furthermore, the use of technology has a huge impact in a variety of social and cultural situations, since it aids in the development of children's linguistic skills as well as their cultural awareness. According to Taghizadeh et al. (2017 cited in Jassim & Dzakiria, 2019), games help youngsters acquire vocabulary more effectively than traditional methods.

According to Shahriarpour and Kafi (2014 cited in Yunus & Suliman 2020), playing games encourages students to participate actively in the technology society of the twenty-first century. Playing educational games with students would provide them with the opportunity to study in a more pleasant and supportive environment. According to Pehlivan (2020), Weblogs, e-diaries, online games, online books, digital learning platforms like EBA (Education Information Network), and learning management systems like Blackboard, Edmodo, and others are some of the most popular and useful web-based tools for meeting the pedagogical needs of both teachers and students who are learning English. The goal of this study, which is based on a literature review, is to look at the impacts of digital games on children's vocabulary development.

Literature review

The role of vocabulary in language acquisition.

Vocabulary is words that any language has. To learn the language learners firstly need to learn their word database, as without words they are not able to understand and utilize the language. According to Nation (2001 cited in Pehlivan, 2020), vocabulary is as important as grammar and linguistic structures; vocabulary knowledge is a supplemental component for foreign language learners' overall competency and a precondition for advanced

language learning. Vocabulary knowledge facilitates language use, language usage facilitates the expansion of vocabulary knowledge, and word knowledge facilitates the expansion of vocabulary knowledge and language use, and so on(Hazar, 2020).

Who are young learners?

Young English language learners are students under 18 years old, according to Dolgunsöz (2017, cited in Tebeweka,2021), in general young learners are between the ages of 5 to 12 years. Teachers must be aware that young students have difficulty discriminating between the actual and fantasy worlds. Young learners prefer to work in groups rather than alone, especially while playing or working. Praise is essential for young students because it motivates them when their teacher shares their excitement (Bakhsh,2016)

The effect of digital games in young learners.

The traditional way of teaching vocabulary is through textbooks, by repetition of words became unappealing and monotous for children, as the technology was spread widely, children like to play mobile phones and computers online. To attract youngsters' attention, it would be easy to use and teach them through online games. Games are the fun activities for children, and digital games are the games which are played online, in computers or mobile phones. Digital games, according to Wu, Zhang, and Wang (2020, quoted in Tebeweka), are games that are generated and planned using computer technology and deployed using digital equipment as a platform. They further argue that digital games encompass, among other things, computer games, interactive digital board games, video games, internet games, and mobile games. Digital games are games that are designed using various technologies that allow users to enter a visual environment noted Cetin (2013,cited in Hazar, 2020). According to Wood the use of digital games as a learning aid, as well as game-like forms, may be more effective than traditional media, such as textbooks, at capturing learners' attention (2001, cited in Hazar 2020).

Digital games were divided into five categories by Hong, Cheng, Hwang, Lee, and Chang (2009 cited in Hazar, 2020): (1) drill and practice games; (2) single combat games; (3) stable contest games; (4) evolving contest games; and (5) contextual games.

In this day and age, technology is an inextricable element of our life. Many studies have demonstrated that digital games influence to young learners positively (Prensky, 2003; Leemkuil, 2006; Gee, 2012; Tüzün et al. 2009; Van Eck; 2006 cited in Yunus & Suliman 2020; Pehlivan,2020; Hazar ,2020; Tebeweka,2021). "As digital technologies penetrate ever deeper into virtually every aspect of our daily lives," as Furlong and Davies (2012, cited in Pehlivan, 2020) put it, "it becomes more and more pressing for those of us with an interest in education to develop a better understanding of their impact on learning outside formal educational institutions". Technology, according to Bull and Ma (2001, cited in Pehlivan, 2020), provides language learners with endless resources, and "foreign language instructors, like most teachers in other professions, trust in the potential of the Internet as a tool and a resource bank of varied instructional materials." According to Hazar's study, it can be stated that using digital games to teach English vocabulary to young learners is far more effective than using traditional methods,techniques used in the past. Digital tools are essential components of every business. Using these technologies in the classroom and in most children's lives might encourage pupils to enjoy their sessions.

Fearful students who are shy to speak and have difficulty to learn language , by using games can diminish their anxiety. Working online can increase self-confidence, as children work without teacher's pressure. Furthermore, as online platform games interesting and attractive, pupils spend more time on playing and learning the language.

In consistency with Sulistianingsih's research learning English vocabulary should be a fun activity especially for middle schoolers. Games are one of the solutions to developing active and creative learning activities. Interactive

digital board games stimulate and encourage students to participate in vocabulary acquisition, especially if there is a winning motivator, with fun (2019,quoted in Tebeweka, 2020). Furthermore, using games to acquire vocabulary is efficient since they cooperative learning atmosphere for the students (Calvo-Ferrer, 2015, cited in Yunus & Suliman, 2020)

Yunus and Suliman studied the effect of one of the digital game called Pocable game and Pear deck, whether these activities improve children vocabulary knowledge, the results demonstrated tha Pocable and Pear duck game enhanced students vocabulary, boosted their self confidence

Conclusion

To sum up vocabulary is unchangeable,important skill to learn. To avoid from the boring and monotous lessons teachers may use differenr games. Online or digital games are the games ,which is played online with a group. Effects of teaching was observed, according to them digital games have influenc ont students' anxiety, pressure put on them, free to speak about one's selves,self- confidence, motivating and so on. The goal of this study, which is based on a literature review, is to look at the impacts of digital games on children's vocabulary development.

References

1. Chai Kar Ni, Bonaventure Jong, Mary Anne Dison, Sylvia Anak Thomas, Melor Md Yunus* and Ashairi Suliman. 2020, Enhancing Malaysian Primary Pupils' Vocabulary Skills using Pocable Game and Pear Deck, International Journal of Learning, Teaching and Educational Research Vol. 19, No. 6, pp. 145-160, June 2020 https://doi.org/10.26803/ijlter.19.6.9
2. Esin Hazar,2020, Use of Digital Games in Teaching Vocabulary to Young Learners, Educatia 21 Journal, (19) 2020, Art. 1 doi: 10.24193/ed21.2020.19.12

3. Pehlivan,2020, THE USE OF EBA (EDUCATION INFORMATION NETWORK) IN TEACHING VOCABULARY AND GRAMMAR TO EFL YOUNG LEARNER,thesis
4. Stella Nanfuka Tebeweka,2021, The Impact of Digital Games on English Vocabulary Learning in Middle School in Sweden (ages 9-12) , Degree Project with Specialization in English Studies and Education .



ILMIY IZLANUVCHILAR UCHUN ENG YAXSHI XALQARO OCHIQ JURNAL SAYTLARI

Karimov Elyor Abdixalilovich
Al –Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalar unversiteti, “Elektron kutubxona va arxivlar” mutaxassisligi, 2- bosqich magistratura talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6503600

Annotatsiya: *Ushbu maqolada talabalar, ilmiy izlanuvchilar va yosh olimlarni xalqaro nashrlar haqida ma’lumot berish sifatida ko’rib chiqilgan. Bundan tashqari ochiq erkin foydalanish haqida tushunchalar yoritilgan bo’lib dunyoda keng tarqalgan va ishonchli bo’lgan xalqaro ochiq jurnallar tahlili keltirilgan.*

Kalit so’zlar: *Ochiq jurnallar, jurnal, Erkin foydalanish, electron nashrlar, Elektron kutubxona, Xalqaro erkin jurnal*

Axborot bilim uchun asos bo'lgan va to'g'ri, insoniyat doimo ma'lumotga qiziqish bildirgan – axborotni yaratish, undan foydalanish va uni taqdim etish. Rivojlanayotgan bilimli jamiyatda axborotning mavjudligi va ulardan foydalanish shaxs va millatning rivojlanishiga yordam beradi. Tadqiqotda ma'lumotlarning qiymatini yo'qotib bo'lmaydi va axborotni qo'llab-quvvatlamasdan turib, bu boradagi taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Axborot inqilobining boshlanishi 21-asrning mo'jizalaridan biri deb hisoblanadi. Yangi texnologiya nafaqat zamonaviy kutubxonalarni yaratdi va rivojlantirdi, balki ko'plab mavjud kutubxonalarni zamonaviy yo'nalishlarga aylantirdi. Bu asr internetning, xususan, axborotni saqlash va yetkazib berishning yangi vositasi sifatida butun jahon internet tarmog’i www vujudga keldi. Jurnallar va boshqa muhim axborot resurslarini elektron versiyada nashr etishda ham sezilarli o'zgarishlar kuzatildi.

Ochiq kirish jurnallari, nomidan ko'rinib turibdiki, foydalanuvchilar ilmiy maqolalar va tadqiqot ishlariga

bepul kirishlari mumkin bo'lgan veb-saytlardir. Ular ishonchli akademik ma'lumotni izlashi kerak bo'lgan, ammo buning uchun pul to'lay olmaydigan shaxslar va guruhlar uchun juda foydali manbadir.

Bu maqolada men turli fanlar va yo’nalishlar bo'yicha eng yaxshi ochiq jurnallar tahlilini keltirdim.

1. Elsevier



Ilmiy hamjamiyatga 140 yildan ortiq xizmat qilgan holda, Elsevierdagi ochiq jurnallar juda ishonchli va keng iqtibos keltirilishi bilan mashhur. Elsevier jurnallari fan va tibbiyotning har qanday sohasini, jumladan, kardiologiya, anesteziologiya, yuqumli kasalliklar va hatto tuproq mexanikasini qamrab oladi. Ochiq kirish jurnallarida butun dunyo, jumladan Ispaniya, Braziliya, Xitoy va Saudiya Arabistoni ilmiy nashrlarining ingliz tiliga tarjimalari mavjud. Elsevierni ishga tushirish uchun uning ochiq kirish veb-saytiga o'ting va "Oltin ochiq kirish" deb belgilangan jurnallarni qidiring. Yodda tutingki, yashil ochiq kirish yorliqlari bo'lgan jurnallar siz to'lashingiz kerak bo'lgan obuna jurnallaridir.

2. SAGE Open



SAGE - akademiyadagi yana bir yaxshi tashkil etilgan jurnal nashriyoti. Uning ochiq kirish veb-sayti tadqiqotchilar, talabalar va keng jamoatchilik uchun eng qat'iy o'zaro baholash standartlariga mos keladigan tadqiqotlarni taqdim etishni va'da qiladi. Pandemiya sababli, SAGE shuningdek, COVID-19 bilan bog'liq barcha tadqiqotlarni o'qish va yuklab olish uchun bepul qildi. Ijtimoiy fanlar bo'yicha, Black Lives Matter harakati, shuningdek, SAGE-da tarkibiy irqchilik va politsiya zo'ravonligi haqidagi nashrlarni bepul taqdim etdi. Elsevierga o'xshab, SAGEning saytdagi ochiq jurnallari Oltin sifatida belgilangan.

3. SpringerOpen



2010-yilda ishga tushirilgan SpringerOpen o‘shandan beri akademiyadagi eng nufuzli ochiq jurnallardan biri sifatida shuhrat qozondi. Tashkilot ilm-fan, texnologiya, gumanitar va ijtimoiy fanlarning barcha sohalaridagi mutaxassislarni jamiyatdagi turli tushunchalar va tahlillar haqida o'qishingiz mumkin bo'lgan blogni ham yuritadi. masalalar bo'yicha xabardorlikni oshirish uchun tadqiqot ishlarini topshirishga taklif qiladi. Ochiq kirish jurnallaridan tashqari, SpringerOpen shuningdek, Springer tadqiqotchilari va muharrirlari bilan so'nggi intervyular,

4. BioMed Central

Visit Nature news for the latest coverage and read Springer Nature's statement on the Ukraine conflict
BMC Part of Springer Nature
Search Explore journals Get published About BMC Login
BMC, research in progress
A pioneer of open access publishing, BMC has an evolving portfolio of high quality peer-reviewed journals including broad interest titles such as BMC Biology and BMC Medicine, specialist journals such as Malaria Journal and Microbiome, and the BMC Series.
Expanding beyond biomedicine into the physical sciences, mathematics and engineering disciplines, BMC now offers a wider portfolio of subject fields on a single open access platform.
At BMC, research is always in progress. We are committed to continual innovation to better support the needs of our communities, ensuring the integrity of the research we publish, and championing the benefits of open research.
BMC is part of Springer Nature.
0:00 1:22
BMC 20th anniversary

BioMed Central (BMC) onlayn jurnallari 1999 yildan beri ochiq. Nashr SpringerOpen kompaniyasini boshqaradigan Springer Nature kompaniyasiga tegishli. BMC-ning eng mashhur nashrlaridan ba'zilari BMC Biology va BMC Medicine-ni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, agar siz ushbu sohalardan biriga tegishli ma'lumotni izlayotgan bo'lsangiz, BMC-ni tekshirishni unutmang. BMC, shuningdek, ilmiy tadqiqotlarda halollikni targ'ib qiluvchi Buyuk Britaniyaning xayriya tashkiloti nashriyotlar etikasi qo'mitasining a'zosidir. O'zining tarixi va bog'liqliklari bilan BMC-dan olingan ma'lumotlar obro'ga ega, shuning

uchun siz yolg'on ma'lumot tarqatishdan tashvishlanishingiz shart emas.

5. Royal Society Open Science



Nomidan aniq ko'rinib turibdiki, Royal Society Open Science Buyuk Britaniyadagi Qirollik jamiyati tomonidan chop etiladigan ochiq jurnal bo'lib, dunyodagi eng qadimgi va ehtimol, eng mashhur mustaqil ilmiy akademiyasi. Faqatgina shu obro'-e'tibor bilan siz uning ilmiy maqolalarining sifati yuqori darajada ekanligiga amin bo'lishingiz mumkin. Uning tahririyat jamoasi ham ushbu sohadagi eng yaxshi olimlardan iborat.

Royal Society Open Source turli fanlar, jumladan, hayot haqidagi fanlar, fizika fanlari, matematika, muhandislik va informatika fanlari bo‘yicha ekspertlar tomonidan ko‘rib chiqilgan kontentni nashr etadi.

Royal Society Open Science tomonidan chop etilgan tadqiqot maqolalari, shuningdek, BBC va CNN kabi asosiy axborot vositalarida muntazam ravishda yoritiladi.

6. JSTOR

Agar siz gumanitar fanlar talabasi bo'lsangiz, ayniqsa ingliz tili bo'yicha mutaxassis bo'lsangiz, JSTORni o'zingizning qutqaruvchingiz deb hisoblang. JSTOR akademiyadagi eng yaxshi gumanitar fanlarga yo‘naltirilgan nashrlardan biri bo‘lib, ko‘pchilikning talabiga ko‘ra, hozirda u o‘zining ko‘plab ilmiy jurnallariga ochiq kirish imkonini berdi. Ingliz tilidan tashqari, El Colegio de Mexico va Lotin Amerikasi Ijtimoiy fanlar kengashi bilan hamkorlik tufayli JSTOR-dagi ochiq kirish nomlari ispan tilida ham mavjud. Agar siz liberal san'at talabasi bo'lsangiz, hayajonga tushing, chunki JSTORda Artstor deb nomlangan opa-singil sayti ham bor. Artstor bepul yuklab olishingiz uchun muzeylardan 1,3 milliondan ortiq tasvirlar, videolar, hujjatlar va audio fayllar to'plamiga ega va bu yetarli emasdek, JSTORda erta jurnallar tarkibiga bag'ishlangan bo'lim ham mavjud. Bu AQShda 1923 yilgacha (va 1870 yilgacha dunyoning boshqa joylarida) nashr etilgan maqolalarni bepul qiladi.

7. MDPI Humanities



Gumanitar fanlar talabalari uchun yana bir jurnal. MDPI - Shveytsariyaning Bazel shahrida joylashgan ochiq jurnallar nashriyoti. U 67 000 dan ortiq muharrirlardan iborat keng dunyo bo'ylab 297 ta turli xil, ko'rib chiqiladigan jurnallarda ishlaydi. Gumanitar fanlar internet nashri bo‘lib, har chorakda bir marta chiqariladi. Kinoshunoslikdan tortib tilshunoslik va adabiyotgacha, gumanitar va ijtimoiy fanlarning turli sohalariga oid deyarli har qanday tadqiqot maqolasini topishingiz mumkin. Har choraklik jurnallardan tashqari, veb-saytda butun dunyoda bo'lib o'tadigan gumanitar fanlar bo'yicha konferentsiyalar haqida muntazam e'lonlar mavjud. Agar siz har chorakda jurnalning yangi nashrlarini olishni istasangiz, veb-saytdagi elektron pochta xabarlariga ham yozilishingiz mumkin.

8. Directory of Open Access Journals (DOAJ)

DOAJ OPEN GLOBAL TRUSTED SUPPORT APPLY SEARCH

SEARCH DOCUMENTATION ABOUT LOGIN

THE DIRECTORY OF OPEN ACCESS JOURNALS

Find open access journals & articles.

Journals Articles

In all fields SEARCH

80 LANGUAGES | 130 COUNTRIES REPRESENTED | 12,248 JOURNALS WITHOUT APCs | 17,564 JOURNALS | 7,434,427 ARTICLE RECORDS

Agar siz hali ham yuqoridagi veb-saytlardan qidirayotgan narsangizni topa olmasangiz, nega DOAJ-ni sinab ko'rmaysiz?

DOAJni Google Scholar-ga muqobil sifatida tasavvur qiling. Bu internetda 17 000 dan ortiq ochiq jurnallarni qidirish imkonini beruvchi qidiruv tizimidir. Ushbu ro'yxatdagi boshqa ixtisoslashgan nashrlardan farqli o'laroq, DOAJ jurnallari barcha fanlar bo'yicha barcha sohalarni qamrab oladi. Saytda dunyoning turli tillaridagi jurnallarni ham topish mumkin. DOAJ 100 foiz notijorat veb-sayt bo'lib, jurnalni ko'rib chiqish jarayoni yuzlab ishtiyoqli tahririyat xodimlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, ularning barchasi ko'ngillilardir.

Ochiq kirish jurnallari, ehtimol, Internetdagi qonuniy, ishonchli va dalillarga asoslangan ma'lumotlarning eng yaxshi manbalaridir. Keyingi safar muhim topshiriqni bajarayotganingizda, dalilingizga qo'shimcha ishonchlilik berish uchun eng yaxshi ilmiy jurnallarni topish uchun ushbu veb-saytlarni ko'rib chiqishni unutmang.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Bjork BC, Solomon D. Open access versus subscription journals: A comparison of scientific impact. BMC Med 2012
2. Bjork BC, Welling P, Laakso M, Majlender P, Hedlund T, Guonason G.

Open access to the scientific journal literature: Situation 2009. PLoS ONE 2010

Foydalangan internet havolalar ro'yxati

1. https://www.elsevier.com/open-access
2. https://journals.sagepub.com/home/sgo
3. https://www.springeropen.com/
4. https://www.biomedcentral.com/
5. https://royalsociety.org/journals/
6. https://about.jstor.org/oa-and-free/
7. https://www.mdpi.com/journal/humanities
8. https://doaj.org/

"MILLIY TIKLANISHDAN MILLIY YUKSALISH SARI" G'OYASINING O'ZBEKISTON BARQARORLIGIDAGI O'RNI

Umurzakov Uyg'un Abdutalipovich
O'zbekiston Respublikasi
Qurolli Kuchlari Akademiyasi o'qituvchisi,
O'zMU mustaqil izlanuvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6508248

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mamlakatimiz barqarorligi, istiqlol mustahkamligini ta`minlashda "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" g`oyasining o`rni, amalga oshirilgan islohotlar, ilg`or siyosiy jarayonlar muhokama etiladi.*

Kalit so'zlar: *g`oya, mafkura, jarayon, qonun, siyosat, ijtimoiy hayot, ta`lim.*

KIRISH

Dunyoda ikki yuz ellikdan ortiq davlat, minglab xalq va elat bor. Ular orasida O'zbekiston deya atalmish go'zal va betakror mamlakatning o'z o'rni va nufuzi, o'ziga xos taraqqiyot yo'li borligi qalbimizga iftixor bag'ishlaydi. Shu bois ham Mustaqillik biz uchun benihoya qadrlidir. Qadrli narsa esa osonlikcha qo'lga kiritilmasligini barchamiz yaxshi bilamiz.

Vatanimiz tarixi bir necha ming yillar bilan bo'ylashadi. Bu diyor jahon tamaddunining tamal toshini qo'ygan, ilm-fani, san'ati, madaniyati, ulkan madaniy-ma'naviy merosi, olimu fuzalolari bilan dong taratgan. Shu bois yaqin o'tmishda qariyb bir asr davomidagi mustamlaka davri, ungacha ham haq-huquqlari poymol etib kelingan xalqimiz ruhini hech qanday kuch so'ndirolmagan. Shu nuqtai nazardan o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgani, 1990-1991 yillarda Navro'z bayrami qayta tiklangani, Ramazon va Qurbon hayitlari bayram kunlari deb e'lon qilingani xalqimizning asriy orzu va armonlari ro'yobga chiqishi, milliy qadriyatlarimiz tiklanishi yo'lidagi dastlabki yirik qadamlar bo'ldi[37].

[37] Salimov O. va boshq. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. - T., 2019.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Milliy davlatchiligimizni barpo etish yo‘lidagi zalvorli qadam sifatida Mustaqillikning dastlabki yillarida dastlab uning kafolati bo‘lmish Konstitutsiya qabul qilinganini alohida ta’kidlash joiz. O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish bosh vazifa etib belgilanib, mamlakat siyosiy hayotida ko‘ppartiyaviylik muhiti qaror topdi, nodavlat tuzilmalar, jamoat tashkilotlari va o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyati takomillashtirildi, sud-huquq tizimida, ommaviy axborot vositalari, ma’naviy-ma’rifiy sohalarda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi[38].

Darhaqiqat, mamlakatimiz tarixida o‘chmas sahifa ochgan buyuk istiqlol tufayli O‘zbekiston o‘tgan davr mobaynida jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallab, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil ilgarilab bormoqda. Ayniqsa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining yigirma sakkiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi bu o‘zgarishlarni yanada teranroq anglashimiz, idrok etishimizda muhim ahamiyat kasb etdi. Davlatimiz rahbarining har bir so‘zlari xalqimiz qalbida iftixor tuyg‘ularini yanada jo‘sh urdirdi. Shubhasiz, bundan ruhlangan xalqimiz davlatimizning har qarich yerida yuksalish davri bo‘lishi uchun azmu qaror qilmoqdalar.

Muhtaram Yurtboshimiz nutqida ta’kidlaganidek, Milliy yuksalish deganda, biz mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimizning hayot darajasi va turmush sifatini har tomonlama yuqori bosqichga ko‘tarishni tushunamiz. Ilm-fan, ta’lim-tarbiya, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport sohalarida bo‘layotgan katta o‘zgarishlar hayotimizda muhim voqelikka aylanmoqda.

Yurtimizda ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha o‘ziga xos tizim

[38] Otamurodov S., Otamurodov S.S. O‘zbekistonda ma’naviy-ruhiy tiklanish. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013.

shakllanmoqda. Bu borada 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirilayotgani, “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, “Yoshlar – kelajagimiz”, “Besh ijobiy tashabbus” kabi dasturlar aholini yangicha fikrlash va ishlashga safarbar etishda muhim rol o‘ynamoqda. Buning natijasida, hatto mamlakatning eng chekka hududlari, markazlardan olisda joylashgan qishloqlarning ham me’moriy qiyofasi tubdan yangilanib, aholining turmush farovonligi yuksaltirilmoqda.

NATIJALAR

Sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport, ilm-fan, ayniqsa, ta’lim-tarbiya sohalarida bo‘layotgan ulkan o‘zgarishlarning barchamiz guvohi bo‘lib turibmiz.

Shu o‘rinda Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda umumta’lim maktablarida 11 yillik tizim tiklanganini, maktab ta’limini rivojlantirish masalasi buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanayotganini alohida ta’kidlash joiz. Ayniqsa, bugungi kunda mamlakatimizda oliy ta’lim sohasi ham jadal rivojlanmoqda. So‘nggi uch yilda 35 ta yangi oliy o‘quv yurti tashkil qilingani, ularning umumiy soni 112 taga yetgani, e’tiborlisi, bularning 13 tasi nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari ekani sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning yorqin isbotidir[39].

Ertangi kelajagimiz bo‘lmish yoshlar kelgusida ana shu ulug‘vor ishlarning munosib davomchilaridir. Shu nuqtai nazardan, yangi o‘quv yilining ilk – “Mustaqillik” darslarida istiqlol yillarida, ayniqsa, keyingi uch yilda amalga oshirilgan islohotlar, Harakatlar strategiyasida belgilangan “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan ustuvor g‘oya, Prezidentimiz nutqi mazmun-mohiyati xususida o‘quvchi-yoshlarga keng tushunchalar berildi, ularning fikr-mulohazalari tinglandi. Quvonarlisi, yoshlar Yurtboshimiz nutqining har bir

[39] Quronov M. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari // O‘zbekiston adabiёti va san’ti. 2019 yil 23 avgust.

satrida hayot borligini, har bir so‘zida O‘zbekistonimizning yuksak taraqqiyotiga qaratilgan aniq maqsad borligini teran anglab yetdi.

Shu o‘rinda alohida ta’kidlash joizki, bundan keyin ham biz pedagoglar ma’naviyat va ma’rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi, deb bilamiz. “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan ustuvor g‘oya asosiy dasturilamalimizdir. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, vijdoni, ma’naviyati bor inson Vatanni albatta yaxshi ko‘radi. Vijdon, ma’naviyat degani – xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish deganidir.

XULOSA VA MUNOZARA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentabrda **“**Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilingani ta’lim tizimidagi islohotlarning mantiqiy davomi bo‘ldi. Ushbu hujjatda nazarda tutilgan maqsadlar barchamizni quvontirdi.

Talabalar uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari va nomli davlat stipendiyalari ta’sis etildi. Barcha talabalarning katta orzu va maqsadi bo‘lmish imtiyozli davlat stipendiyalari har yili o‘zining yangidan yangi egalarini topib bormoqda. Davlat stipendiyasi sohibiga aylanish talaba uchun nafaqat moddiy rag‘bat, balki yuksak nom va e’tirof hamdir[40].

Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Ulug‘bek va Imom al-Buxoriy nomidagi davlat stipendiyalari O‘zbekiston Respublikasi davlat oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat bo‘yicha o‘qiyotgan oxirgi ikki kurs talabalariga tayinlanadi. Nomli davlat stipendiyalariga talabgor talaba quyidagi mezonlarni bajarishi talab etiladi: Fanlarni a’lo bahoga o‘zlashtirishi; Ilmiy (ijodiy) ishlarda ishtirok etib o‘zini ko‘rsatishi; Davlat tilidan tashqari yana bitta xorijiy (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilni bilish, bakalavriatdagi ta’lim

[40] Saifnazarov I. Obidov A. Dinlararo hamjihatlik-ijtimoiy barqarorlik omili. –T.:Innovatsion rivojlanish, 2020.

yo‘nalishi xorijiy til hisoblangan alohida hollarda qo‘shimcha ravishda yana bitta xorijiy tilni bilishi; O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmagan shaxslar uchun esa o‘qish olib boriladigan tilni qo‘shimcha ravishda bilish talab qilinadi. Keyingi yillarda Prezidentimiz tomonidan xalq ta’limi tizimiga oid 6 ta farmon va qaror, Vazirlar Mahkamasining 21 ta qarori qabul qilinib, bu sohadagi islohotlarning huquqiy-me’yoriy asoslari mustahkamlandi.

Xulosa o‘rnida aytganda, amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi yosh avlodning puxta va sifatli bilim olishiga davlatimiz tomonidan ko‘rsatilayotgan katta e’tiborning amaldagi ifodasidir. Zero, hech bir davlatda O‘zbekistondagidek bepul ta’lim tizimi mavjud emas. Bu islohotlarning tag-zamirida mustaqillik bergan cheksiz imkoniyatlardir.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Salimov O. va boshq. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. - T., 2019.

2. Otamurodov S., Otamurodov S.S. O‘zbekistonda ma’naviy-ruhiy tiklanish. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013.

3. Otamuratov S. Globallashuv: Millatni asrash mas’uliyati(siёsiyfalsafiy qirralar).–T.: ―O’zbekiston‖, 2018.– 352 b.

4. Quronov M. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari // O‘zbekiston adabiёti va san’ti. 2019 yil 23 avgust.

5. Saifnazarov I. Obidov A. Dinlararo hamjihatlik-ijtimoiy barqarorlik omili. –T.:Innovatsion rivojlanish, 2020.



SUG'ORISH SUVIDAN FOYDALANISHNING YER OSTI SUVLARI MUHITIGA VA TUPROQ SHO'RLANISHIGA TA'SIRI

I.Habibullayev[1], B.M. Murodullayev[2]

[1]Toshkent moliya institute elektron tijorat va raqamli iqtisodiyot kafedrasi, tfd professor

[2]Raqamli iqtisodiyot va sun'iy intelektni rivojlantirish ilmiy tadqiqot instituti, tayanch doktaranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.6508263

Annotatsiya *Tadqiqot ishida sug'orish suvidan foydalanishning yer osti suvlarining o'zgarishiga ta'siri o'rganiladi va yer osti suvlari EC va uning sifatining o'zgarishini tahlil qilinadi va biz sug'orish suvidan foydalanishning sug'orish ta'siriga uchragan yer osti suvlari muhitining tuproq sho'rlanishiga ta'sirini o'rganib chiqdik. Tadqiqotimiz shuni ko'rsatdiki, Kasbi tumanida yuqori oqimdagi sug'orish suvidan foydalanish 4-maydon bo'lgan Kasbi tumanida quyi oqimdagi yer osti suvlari chuqurligining o'zgarishiga ta'sir qiladi. Yuqori oqimdagi sug'orish suvidan ortiqcha foydalanish quyi oqimdagi yer osti suvlarining chuqurligini kamaytiradi.*

Аннатоция *В исследовании изучается влияние использования оросительной воды на изменения подземных вод и анализируются изменения EC подземных вод и их качества, а также мы изучаем влияние использования оросительной воды на окружающую среду подземных вод, на которую влияет орошение, изучалось влияние засоленности почвы. Наше исследование показало, что использование оросительной воды верхнего бьефа в Касбинском районе влияет на изменение глубины залегания грунтовых вод нижнего бьефа в Касбинском районе, который является 4-м районом. Чрезмерное использование воды для орошения вверх по течению снижает глубину залегания грунтовых вод вниз по течению.*

Annotation *The study examines the impact of irrigation water use on groundwater changes and analyzes changes in groundwater EC and its quality, and we examine the impact of irrigation water use on the groundwater environment*

affected by irrigation. studied the effect of soil salinity. Our study showed that the use of upstream irrigation water in Kasbi district affects the change in the depth of downstream groundwater in Kasbi district, which is the 4th area. Excessive use of upstream irrigation water reduces the depth of downstream groundwater.

Kalit so'zlar: *Irrigatsiya inshoatlari, yer osti suvlari, sho'rlanish, fazoviy taqsimot, drenaj.*

Ключевые слова: *Ирригационные сооружения, подземные воды, минерализация, пространственное распределение, дренаж.*

Keywords: *Irrigation facilities, groundwater, salinity, spatial distribution, drainage*

1.Kirish

Sug'orishning hosildorlikni oshirishga ijobiy ta'siridan tashqari, daryo havzasining quyi oqimida sug'orish yer osti suvlari chuqurligi oshishi bilan sho'rlanishni keltirib chiqarishi mumkin. Sug'orish natijasida yuzaga keladigan yer osti suvlari muhitining tuproqqa ko'rinadigan ta'siri faqat sho'rlanishning ilg'or bosqichlarida, muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak bo'lganda kuzatilishi mumkin. Sug'orish shuningdek, quyi oqimda suv tanqisligi, drenaj muammolari va ifloslantiruvchi moddalarning drenaji kabi yuqori va quyi oqim muammolariga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, tuproq sho'rlanishining oldini olish uchun qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil hududlarda sug'orishning yer osti suvlari muhitiga ta'sirini baholash juda muhimdir.

Qashqadaryo viloyatining umumiy yer maydoni 2857 ming ga, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar 2195 ming ga yoki jami maydonga nisbatan 76,8 %. Sug'oriladigan yerlar 461 ming ga yoki jami qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning 21,0 foizi demakdir. Bunday yerlar ulushi eng yuqori Kasbi tumanida - 90,8 %; ikkinchi o'rinda Qarshi tumani turadi - 66,4 %. Muborak, Shahrisabz, Yakkabog', Chiroqchi va, ayniqsa, Dehqonobod tumanida u juda past (atigi 1,0 foizga yaqin).

Jami ekin maydoni 682,7 ming ga, uning 2/3 qismiga yaqini fermer xo'jaliklarida. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar tarkibida ekin maydonlari 31,1 foizni tashkil qiladi. Bu xususda Kasbi (87,0 %), Chiroqchi (51,2 %), Qarshi (67,0 %) tumanlari oldinda, Muborak (13,1 %), Dehqonobod (15,9 %) va Mirishkor (20,0 %) oxirgi o'rinlarda turadi.

Kasbi tumani Qarshi cho'lida joylashgan. Hududida Maymanoq tog' tizmasi bor. Iqlimi keskin kontinental. Yozi issiq, quruq va uzok,. Bahor va kuzda yog'in kam. Qishda qor oz yog'adi, qattiq sovuq bo'lmaydi. Yanvarning o'rtacha temperaturasi 0° dan 20° gacha, iyulniki 28,2°–31,6°. Yil davomida yog'ingarchilik kunlari 58–60 kundan oshmaydi. T-raning yuqoriligi tufayli bug'lanish miqdori yiliga yog'ingarchilikka nisbatan o'n barobar ko'p. Yiliga o'rtacha 270 mm, ayrim yillari 310–320 mm, qurg'oqchilik yillari 100 mm yog'in tushadi. Kasbi tumanining Koson tumani bilan chegarasidan Qashqadaryo oqib o'tadi. Tuprog'i, asosan, bo'z tuproq. Ba'zi joylarda sho'rlangan.

Ushbu tadqiqot 682.7 ming ga dan ortiq maydonni egallagan, quyi oqimda tuproq sho'rlanishi sodir bo'lgan yirik sug'orish tumanida o'tkazildi. Birinchidan, biz sug'orish suvidan foydalanishning yer osti suvlari muhitiga ta'sirini o'rgandik. Keyinchalik, quyi oqimdagi tuproq sho'rlanishiga sug'orish suvidan foydalanishning ta'sirini aniqladik. Ushbu tadqiqotning aniq vazifalari sug'orish suvidan foydalanishning yer osti suvlari chuqurligi va sho'rlanishining tebranishlariga ta'sirini aniqlash, keyin esa sug'orish ta'sir qiladigan yer osti suvlari muhitining tuproq sho'rlanishiga ta'sirini baholashdan iborat edi.

2. O'rganilayotgan hududning konturlari

Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasining Qashqadaryo viloyatida joylashgan Kasbi tumani irrigatsiya loyihasi hududi dala o'lchovlarini o'tkazishga asoslangan (1-rasm).

Kasbi tumanining eng baland joyi dengiz sathidan taxminan 2100 m balandlikda. 1970-yil 16 oktabrda tashkil etilgan. Kasbi tumani

viloyatning g‘arbida joylashgan. Kasbi tumani Qarshi cho‘lida joylashgan. Hududida Maymanoq tog‘ tizmasi bor. Iqlimi keskin kontinental. Yozi issiq, quruq va uzok,. Bahor va kuzda yog‘in kam. Qishda qor oz yog‘adi, qattiq sovuq bo‘lmaydi. Yanvarning o‘rtacha temperaturasi 0° dan Ggacha, iyulniki 28,2°–31,6°. Yil davomida yog‘ingarchilik kunlari 58–60 kundan oshmaydi. T-raning yuqoriligi tufayli bug‘lanish miqdori yiliga yog‘ingarchilikka nisbatan o‘n barobar ko‘p. Yiliga o‘rtacha 270 mm, ayrim yillari 310–320 mm, qurg‘oqchilik yillari 100 mm yog‘in tushadi. Kasbi tumanining Koson tumani bilan chegarasidan Qashqadaryo oqib o‘tadi. Tuprog‘i, asosan, bo‘z tuproq. Ba’zi joylarda sho‘rlangan.



1-rasm. Kasbi tumani yer maydonining holati

1-jadval Ushbu tadqiqotda foydalanilgan ma'lumotlar

Yil va hudud	**Namuna hajmi**	**O'lchov oralig'i**	**Yer osti suvlari chuqurligi**	**Yer osti suvlari EC**	**Tuproqning sho'rlanishi (ECe)**
1977 (4-maydon)	156	faqat avgust		o	
1995-1996 (1-3-maydon)	572	oylik	o	o	
2005-2006 (1-3- maydon)	572	oylik	o	o	
2015-2016 (4- maydon)	15 (50*)	oylik	o	o	o (2015-iyul)

Irrigatsiya inshootlari qurilishi 1917-yillarda boshlangan bo‘lib, tumanni turli rivojlanish bosqichlariga ko‘ra to‘rt hududga bo‘lish mumkin. Dastlabki uchta hududda irrigatsiya-drenaj inshootlarini o‘rnatish ishlari

yakunlangan bo‘lsa, 4-hududda inshootni o‘rnatish endigina boshlangan. 4-hududdagi yangi ishlanmalardan farqli o'laroq, 1-3-hududlarda qurilgan eski sug'orish inshootlari eskirganligi sababli sug'orish suvining sizib chiqishi ortib ketdi.

3. Materiallar va usullar

Birinchidan, biz sug'orish suvidan foydalanish va yog'ingarchilikning er osti suvlari muhitiga ta'sirini baholadik va keyin er osti suvlari muhitining tuproq sho'rlanishiga ta'sirini o'rganib chiqdik. Sug'orish va yog'ingarchilik bo'yicha ma'lumotlar tegishli ravishda Davlat gidrotexnikasi va Meteorologiya bosh boshqarmasidan olingan (1-jadval). Tuproqning sho'rlanishi haqidagi ma'lumotlar, to'yingan pasta ekstraktining (ECe) elektr o'tkazuvchanligi ^ukurova universiteti laboratoriyasida o'lchandi.

2005-2006 yillardagi er osti suvlari ma'lumotlari 1-rasmda ko'rsatilganidek, 15 ta kuzatuv qudug'ida, shu jumladan 3-hududda joylashgan to'rtta quduqda (ya'ni, 3-bosqichda ishlab chiqilgan maydon) o'lchandi. 1-3 maydonlar uchun yer osti suvlarini kuzatish quduqlari butun maydonni qamrab oldi.

Sug'orish suvi ta'sirida bo'lgan er osti suvlari muhitining tuproq sho'rlanishiga ta'sirini baholash uchun LANDSAT TM ning 2005 yil iyul oyidagi ma'lumotlari tuzdan zarar ko'rgan dalalarni aniqlash uchun ishlatilgan. Tuzdan zarar ko'rgan dalalar aniqlangan va belgilangan usul bilan tasniflangan (Kume va boshq., 2007) dala o'lchovlari ma'lumotlari va tuproq xaritasi.

4. Natijalar va muhokama

4.1 Yer osti suvlari chuqurligining o'zgarishi

Sug‘orish suvidan foydalanishning yer osti suvlari chuqurligiga ta’siri barcha to‘rtta hudud bo‘yicha tahlil qilindi. 1993-1994 va 2003-2004 yillarda 1-3 maydonlarda er osti suvlari chuqurligining tebranishlarida ikkita cho'qqi qayd etildi (2 va 3-rasmlar). O'sish may oyida boshlangan va sug'orish bilan avgustgacha yuqori darajada saqlanib qolgan va sug'orish bo'lmaganda sentyabrdan oktyabrgacha pasaygan.



2-rasm. 1995-1996 yillar davomida 1-3 maydonlar uchun yer osti suvlari chuqurligining o'zgarishi



3-rasm. 2005-2006 yillar davomida 1-3 maydonlar uchun yer osti suvlari chuqurligining o'zgarishi



4-rasm. 1995-1996 yillar davomida 1-3 maydonlar uchun yer osti suvlari chuqurligining o'zgarishi



5-rasm. A va B kesmalari bo'ylab yer osti suvlari chuqurligining o'zgarishi

2-Jadval. EC Yer osti suvlarini tavsiflovchi statistikasi EC

	Namuna hajmi	**O'rtacha EC (dS m^{-1})**	**Standart og'ish (dS m^{-1})**	**Maksimal EC (dS m^{-1})**	**Minimal EC (dS m^{-1})**
1977 (4-maydon)	156	46.8	40.6	276.0	1.2
1995-1996 (1-3-maydon)	574	1.3	2.1	24.0	0.2
2005-2006 (1-3- maydon)	574	0.8	0.8	12.0	0.1
2015-2016 (4- maydon)	15	12.4	19.6	78.6	0.5

Noyabrdan martgacha yog'ingarchilik bilan yer osti suvlari chuqurligining oshishi sodir bo'ldi. Shunga qaramay, taxminan 300 mm

yog'ingarchilik bo'lsa ham, noma'lum sabablarga ko'ra, yer osti suvlari chuqurligi yanvar oyida (1995-1996) kamaydi.

Ushbu natijalardan biz yer osti suvlari chuqurligida maydan avgustgacha sug'orish bilan ortgan, sentyabrdan oktyabrgacha pasaygan va yog'ingarchilik bilan noyabrdan aprelgacha ko'tarilgan ikkita cho'qqini aniqladik. Yer osti suvlari chuqurligining o'zgarishi sxemasi turli joylarda balandliklar bilan o'zgarmadi (ma'lumotlar ko'rsatilmagan). 2005-2006 yillardagi yer osti suvlarining o'rtacha chuqurligi 1995-1996 yillardagiga qaraganda sayozroq bo'ldi, bu, ehtimol, sug'orish uchun suvdan ko'proq foydalanish va eskirgan sug'orish inshootlaridan sizib chiqishning ko'payishi bilan bog'liq.

2005-2006 yillarda 4-hududda o‘tkazilgan xuddi shunday tahlil 1-3-maydonlarda kuzatilgan er osti suvlari chuqurligining xuddi shunday tebranishini va sxemasini aniqladi. Ikki cho'qqi sug'orish suvi va yog'ingarchilikning ko'payishi natijasida yuzaga keldi. 4-rasmda ko'rsatilgan yer osti suvlarining o'rtacha chuqurligi sug'oriladigan va sug'orilmaydigan dalalarni ifodalovchi 3-hududdagi 12, 203, 453 va 483-quduqlar ma'lumotlarini o'z ichiga oladi. Joylashuv va sug'orish holatining yer osti suvlari chuqurligidagi tebranishlarga ta'sirini baholash uchun biz 1-rasmda ko'rsatilgan ikkita transekt bo'ylab quduqlarni baholadik va yer osti suvlari chuqurligidagi tebranishlarni alohida-alohida chizdik (5-rasm).

6 va 8-kuzatish quduqlari sug‘orilmaydigan dalalarda, 11, 453 va 483-quduqlar sug‘oriladigan dalalarda joylashgan. Ushbu natijalar 1-3 maydonlarda ko'rilgan bir xil ikkita cho'qqi bilan yer osti suvlarining aniq tebranishini ko'rsatadi. 6 va 8-kuzatish quduqlari tumanning eng past qismida joylashgan bo'lib, butun kuzatuv davrida yer osti suvlari chuqurligi ancha sayoz bo'lib qoldi.

4.2 Yer osti suvlarining sho'rlanishining o'zgarishi

1-3-sonli hududlarda yer osti suvlarining elektr o'tkazuvchanligi (EC) 1995-1995 va 2005-2006 yillarda, 4-hududda esa 1977 va 2005-2006 yillarda pasaydi (2-jadval),

ehtimol, drenaj inshootlarining rivojlanishi va ulardan foydalanish tufayli ortiqcha sug'orish suvi. 2005-2006 yillar davomida 4-maydonda ECning standart og'ishi yuqori edi. Katta o'zgarish 3 va 4 maydonlar orasidagi chegarada joylashgan asosiy drenaj kanalining qurilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Yer osti suvlari oqimi va EC biroz qiya relef bo'ylab, Kasbi tumani hududi bo'ylab Qarshidan Muborakgacha bo'lgan balandlik pasayib boradi (6-rasm). Bu natija, ehtimol, sug'orish suvidan foydalanish qulayligi, drenajning qulayligi va yuqori oqimdan quyi oqimga tuzning konvektsiyasi bilan bog'liq.

1977 yildan 2005-2006 yilgacha bo'lgan 15 ta kuzatuv qudug'i uchun yer osti suvlarining EC qiymatlarining tarqalish sxemalari 7-rasmda ko'rsatilganidek, R 2 = 0,61 bilan chiziqli munosabatni hosil qildi, bunda 1977 yil uchun EC qiymatlari Kriging usuli (Delhomme, 1978) kuzatuv quduqlari yo'qligi sababli. Yer osti suvlari EC 4-maydonda kamaydi va drenaj kanalidan masofa va yerdan foydalanish turi ta'sir ko'rsatdi, bu 2005-2006 yillardagi yer osti suvlari EC ning yuqori standart og'ishiga mos keladi (2-jadval).

Na+ va natriyning adsorbsion nisbati yer osti suvlari EC bilan ijobiy munosabatni ko'rsatdi (8 va 9-rasmlar) va 1977 va 2005-2006 yillarda deyarli bir xil regressiya chizig'ida chizilgan. 2005-2006 yillarda 4,0 dS m^{-1} dan yuqori EC qiymatlari o'rtacha 17,6 SAR (13,0 SAR almashtiriladigan natriy ulushiga (ESP) 15,0 ga teng) 2005-2006 yillarda 4-hududning ba'zi joylarida kuzatilgan. Natriyga boy tuproq uchun qiymat 15,0 dan yuqori. Shuning uchun natriy yuqori SAR darajasi tufayli 4-hududdagi tuproqlarda tuproq zarralarida to'planishga moyil bo'lishi mumkin.





6-rasm. Yer osti suvlari EC monitoring quduqlari balandligi bo'yicha tasniflanadi

7-rasm. 1977 va 2005-2006 yillarda yer osti suvlari EC o'rtasidagi munosabatlar





8-rasm. 1997 va 2005-206 yillar uchun yer osti suvlari EC va Na+ o'rtasidagi bog'liqlik

9-rasm. 1997 va 2005-206 yillar uchun yer osti suvlari EC va SAR o'rtasidagi bog'liqlik

4.3 4-hududda tuproq va yer osti suvlari sho‘rlanishining fazoviy taqsimoti

Tuproqning sho‘rlanishi 4-maydonda er osti suvlari chuqurligi va uning EC yuqoriligi tufayli sodir bo‘ladi. 1977 yilda 4-maydonda EC yer osti suvlarining tarqalish xaritasi Kriging texnikasi bo'yicha baholangan (10-rasm). Er osti suvlari EC 1977 yildan 2005-2006 yilgacha chiziqli munosabatlarni, ya'ni shunga o'xshash naqshni ko'rsatdi (7-rasm). Shuning uchun 2005-2006 yillarda EK er osti suvlarining tarqalish sxemasi 1977 yildagiga o'xshash edi.

Ko'pgina o'simlik turlari 4,0 mS/m chegara chegarasidan (AQSh

sho'rlanish laboratoriyasi xodimlari, 1954 yil) yuqori bo'lgan ECe qiymatlaridan ta'sirlangan va 7,7 dS m -1 dan yuqori bo'lgan ECe qiymatlari paxtaning chegara chegarasi hisoblanadi. Shuning uchun tuz ta'sirlangan dalalarni uchta sinfga ajratdik, ECe<4,0 dS m -1 , 4,0 dS m -1 <ECe<7,7 dS m -1 va 7,7 dS m -1 <ECe. 4-hududda uchta sho'rlanish klassining foizlari mos ravishda 44%, 21% va 35% ni tashkil etdi. Bu natija shuni ko'rsatdiki, 7,7 dS m -1 dan ortiq tuproq sho'rlangan dalalar hanuzgacha 4-hududda mavjud (11-rasm), bu, ehtimol, sug'orish va drenaj inshootlarining rivojlanishi bilan bog'liq.



10-rasm. 1977 yil 4-maydonda EC yer osti suvlarining tarqalishi

Nihoyat, biz 2005 yil iyuldagi ECE va 1977 yilgi er osti suvlari o'rtasidagi munosabatni ko'rib chiqdik. Bu erda qo'llanilgan ECE ma'lumotlari 2005 yil iyul oyida 4-maydonda 50 ballda o'lchandi. ECe 50 ballga to'g'ri keladigan er osti suvlarining EC qiymatlari interpolyatsiya qilingan holda baholandi. 10-rasmda ko'rsatilganidek, Kriging texnikasidan foydalangan holda ma'lumotlar. Tarqalgan chizmalar ular orasidagi chiziqli munosabatni ko'rsatdi (11-rasm). Tarqatishlarni taqqoslash shuni

ko'rsatdiki, tuzdan ta'sirlangan dalalar yuqori er osti suvlari EC hududlariga to'g'ri keladi.



11-rasm. 2005 yilgi Ece va 1977 yilgi er osti suvlari o'rtasidagi munosabatlar

XULOSA

Birinchidan, biz sug'orish suvidan foydalanishning yer osti suvlarining o'zgarishiga ta'sirini o'rgandik va ikkinchidan, yer osti suvlari EC va uning sifatining o'zgarishini tahlil qildik. Uchinchidan, biz sug'orish suvidan foydalanishning sug'orish ta'siriga uchragan yer osti suvlari muhitining tuproq sho'rlanishiga ta'sirini o'rganib chiqdik.

To'rtta hududda ham yer osti suvlari chuqurligining o'zgarishi yerdan foydalanishdan qat'i nazar, ikkita cho'qqiga, biri sug'orish mavsumida va biri yomg'irli qishda bo'lgan. 2003-2004 yillarda irrigatsiya inshootlarining eskirganligi va sug'orish suvidan ortiqcha foydalanish tufayli yer osti suvlari chuqurligi 1993-1994 yillarga nisbatan yuqori bo'ldi. 1-4 maydonlarda yer osti suvlari EC vaqt o'tishi bilan pasaydi. Biroq, 4-hududdagi yer osti suvlarining EC standart og'ishi sug'orish holati va joylashuvi tufayli katta edi.

2005 yildagi tuzdan zarar ko'rgan dalalar 4-hududdagi 1939 yilgi yer osti suvlari darajasi yuqori bo'lgan maydonga to'g'ri keldi. Garchi butun Kasbi tumanining tuzdan zarar ko'rgan

maydoni sug'orish suvi va drenaj inshootlaridan ortiqcha foydalanish natijasida kamaygan bo'lsa-da, 4-bosqichning 35% hali ham ta'sir ko'rsatmoqda. yuqori sho'rlanish. Yer osti suvlari muhitining EC, Na+ va SAR ko'rsatkichlariga asoslanib, biz tuzdan ta'sirlangan dalalarda natriy tuproq zarralarida to'planishini taxmin qildik.

Tadqiqotimiz shuni ko'rsatdiki, Kasbi tumanida yuqori oqimdagi sug'orish suvidan foydalanish 4-maydon bo'lgan Kasbi tumanida quyi oqimdagi yer osti suvlari chuqurligining o'zgarishiga ta'sir qiladi. Yuqori oqimdagi sug'orish suvidan ortiqcha foydalanish quyi oqimdagi yer osti suvlarining chuqurligini kamaytiradi. 4-hududdagi ba'zi dalalar dengiz sathidan pastda joylashgan va bu hududlar suv bosgan, drenaj inshootlari yetarli emas edi. Shuning uchun yozda 1-3 maydonlarda sug'orish suvidan foydalanish 4-hududda yer osti suvlari muhitining yomonlashishiga olib keladi va tuproqning sho'rlanishiga yordam beradi.

6. Adabiyotlar

1. Delhomme, JP, 1978: Kriging in the hydrosciences, Advances in Water Resources, 1, 251-266 Din?, U., §enol ,S., Kapur, S. and San, M., 1991: Catenary soil relationships in the Cukurova Region, Southern Turkey. CATENA, 18:185-196.

2. Donma, S., Nagano T., and Watanabe, T., 2004: Irrigation system and improvement in the Lower Seyhan Plain, The interim report of ICCAP, ICCAP pub.3

3. Ghassemi, F., Jakeman, A.J., and Nix, H.A., 1995: Salinization of land and water resources, CAB International, UK Kume, T., AKCA, E., Nagano, T., Donma, S., Serdem, M., Kapur, S., and Watanabe, T., 2006: An analysis of spatial variability of soil salinity in an irrigated area-southern Turkey, Water and Land Management for Sustainable Irrigated Agriculture, (CD-ROM) Kume, T., AKCA, E., Nagano, T., Berbeloglu S., Donma, S., Hoshikawa, K., Serdem, M., Kapur, S., and Watanabe, T., 2007: Soil Salinity Estimation Using Indices Derived from

LANDSAT Data in the Irrigated Area, (paper to be submitted to Remote Sensing of Environment)

4. Scheumann W., 1977: Managing Salinization - Institutional Analysis of Public Irrigation Systems, Springer

5. Tanji, K.K., 1990: Agricultural salinity and assessment and management, American Society of Civil Engineering, USA U.S. Salinity Laboratory Staff, 1954: Diagnosis and improvement of saline and alkali soils, USDA Handbook, U.S. Gov. Print. Office, Washington, DC

BO'LAJAK PROFESSIONAL TA'LIM O'QITUVCHILARIDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING UMUMIY MOHIYATI

Ibroximov Maqsadjon Axmedovich
NamDU o'qituvchisi
Aliyeva Mexrigul Murodulla qizi
NamDU talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6508281

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bo'lg'usi professional ta'limi o'qituvchisi pedagogik faoliyatni to'g'ri tashkil etish, bo'lg'usi professional ta'limi o'qituvchilari ilmiy pedagogik faoliyati davomida alohida e'tibor qaratishi lozim bo'lgan jihatlari va qay tarzda yondashish zarurligi, shuningdek, bo'lg'usi professional ta'limi o'qituvchisining innovatsion va texnologik faoliyatini tashkil qilish xususida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Pedagogning kreativlik, kasbiy kompetentsiya, kasbiy ijod metodologiyasi, ijodiy tafakkur*

Аннотация: *В данной статье особое внимание уделяется правильной организации педагогической деятельности будущего педагога профессионального образования, научной деятельности будущего педагога профессионального образования. целостный подход, а также организация инновационно-технологической деятельности будущего педагога профессионального образования.*

Ключевые слова: *творчество учителя, профессиональная компетентность, методика профессионального творчества, творческое мышление.*

Abstract: *In this article, the future teacher of vocational education should pay special attention to the correct organization of pedagogical activity, future teachers of vocational education in the course of their scientific and pedagogical activities, aspects and the need for a different approach, as well as the organization of*

innovative activities and technological activity of the future professional education teacher.

Key words: *teacher's creativity, professional competence, professional creativity methodology, creative thinking.*

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishlari ularda o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatin tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg'or, talabalarning o'quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishga e'tiborqaratadi. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalgaoshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali tahminlanadi.

Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni

yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida ehtibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potentsialini yanada rivojlantiradi.

Salmoqli amaliy ishlar olib borilayotganligiga qaramay, ko'pchilik o'qituvchilar hali hanuz shaxs (o'zlarida hamda talabalarda) kreativlik sifatlarini qanday qilib samarali shakllantirish tajribasini o'zlashtira olmayaptilar. Ta'lim tizimini boshqarish organlari har yili ta'lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e'tibor qaratadi. Ana shu maqsadda o'quv dasturini ishlab chiqiladi, yangi o'quv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham talabalar, ham o'qituvchilarni kasbiy o'sishlariga yordam beradi. Olib boriladigan amaliy harakatlar talabalarda yutuqlarga erishish, olg'a intilishga bo'lgan ehtiyojni muayyan darajada yuzaga keltiradi, ularning o'quv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi. Biroq, o'quv yilining oxirida kelib oliy ta'lim muassasalarida talabalarning fanlarni o'zlashtirishlarida yuqori darajadagi ijobiy natijalar kuzatilmayapti. Ko'plab talabalarning ta'lim olishga nisbatan qiziqishi yo'qolgan. Buning natijasida o'qituvchilar ham avvalgidek zavqu shavq bilan kasbiy faoliyatni tashkil etishni o'ylashmayapti. Ta'lim tizimini boshqaruvchi organlar ta'lim olishga nisbatan xohish-istagi bo'lmagan talabalar, bu kabi ta'lim oluvchilarni o'qitishni istamayotgan o'qituvchilar faoliyatini o'zgartirish borasida yangidan-yangi chora-tadbirlar belgilansada, ahvol o'zgarishsiz qolmoqda.

Kreativ pedagogikaning umumiy mohiyati uning konseptsual holatlarini ifodalovchi bir qator tushunchalar asosida ochib beriladi. Ular quyidagilardan iborat:

-Ijodkorlik – muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi

-Ijodkor shaxs – ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs

-Kreativ shaxs – jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandart usullar bilan yondasha olishga moyil, o'ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs

-Bunyodkor shaxs – ham jarayon, ham natija sifatida obhektiv ijodkorlikni amalga oshiradigan va talablar darajasida ijodiy mahsulotlarini yarata oladigan shaxs

-Kreativ shaxsni tayyorlash – ijodkorlikka o'rgatish va o'zini o'zi ijodiy namoyon etish jarayonida shaxsda barqaror kreativ sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish mazmuni

-Ijod – ijtimoiy subhektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi

-Ijodkor shaxsni tarbiyalash – kasbiy-ijodiy faoliyat tajribalarini qaror toptirish va boyitish asosida ijodiy g'oya, ularni amalga oshirish ko'nikma va malakalariga ega shaxsni shakllantirish va rivojlantirish

-Kasbiy ijodkorlik metodologiyasi – ijodkorlikning jarayon va natija sifatida ob'ektlar hamda muayyan kasbiy faoliyat turlariga munosabat ko'rinishidagi tuzilishi, mantiqiy tashkil etilishi, metod va vositalari haqidagi tahlimot

-Ijodiy tafakkur – tafakkurning ijod jarayonini tashkil etish va ijod natijalari (mahsullari)ni bashoratlashni ifodalovchi turi

-Kreativ qobiliyat – shaxsning ijodiy faoliyatni tashkil etish va uning natijalanganligiga erishishni ta'minlash imkoniyatini belgilovchi individual xususiyati

-Ijodiy qobiliyat – ijodiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish va uning natijalanganligini baholashda namoyon bo'ladigan individual xususiyati

-O'zini o'zi ijodiy faollashtirish – shaxsning ijodiy faoliyatda o'z imkoniyatlarini to'laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishi

Mashg'ulotlarda o'qituvchi "kreativlik yo'l xaritasi"ga ko'ra quyidagi to'rtta yo'nalish bo'yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodolovchi belgilar sanaladi:

1) Ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish;
2) O'qituvchilarni o'quv fanlarini qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiya (metod va vositalar) dan foydalana olish;
3) Innovatsion yondashuv va pedagogic masala (muammo)larning yechimini topishga kreativ yondashish;
4) Kuzatiladigan natijasi;

Har bir pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq.

Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogic muammolarni hal qilishga intilish , ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi.

Pedagog o'z o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiradi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatini tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi.

Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogic xarakterdagi ijod

mahsulotlarini yaratishga alohida
e’tibor qaratishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). –USA: ASCD, 2014.

2. Сиротюк Ф.С. Диагностика одарённости / Усheб.пособие. – М.: ДиректМедиа, 2014.

3. Утёмов В.В., Зинковкина М.М., Горев П.М. Педагогика креативности: прикладной курс научного творчества / Усheб.посбоие. – Киров: АНОО “Межрегинальный ЦИТО”, 2013.



СИНФДАН ТАШҚАРИ ТАРБИЯВИЙ ТАДБИРЛАРДА МИЛЛИЙ МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Холбўтаев Аброр Дилшод ўғли
Жиззах давлат педагогика институти
Таълим муассасаларини бошқаруви йўналиши
2 босқич магистри
Назаров Тошпўлат Бошбек ўғли
Жиззах давлат педагогика институти
ўқитувчиси
https://doi.org/10.5281/zenodo.6508287

Аннотация: *Ушбу мақолада синфдан ташқари тарбиявий ишларни ташкил қилиш, синфдан ташқари ишларнинг ташкилотчиси вазифалари, синфдан ташқари олиб бориладиган тарбиявий ишларда иш усуллари, синфдан ташқари ишлар ўз мазмунига кўра хилма – хиллиги ва тўгарак машғулотлари ҳақида сўз боради.*

Калит сўзлар: *синфдан ташқари ишлар, ташкилотчи, ўқувчилар, тарбиявий фаолият, тарбиячи.*

Синфдан ташқари ишлар – умумий ўрта таълим мактаби ўқув тарбиявий ишининг таркибий қисми, ўқувчиларнинг бўш вақтини ташкил этиш шаклларидан бири. Синфдан ташқари ишлар ўқувчиларни баркамол шахс сифатида шакллантириш ва уларни ҳаётга тайёрлащда кенг имкониятлар яратади. Синфдан ташқари ишларга ўқувчилар билан ўтказиладиган ва уларга тарбия ҳамда билим беришга қаратилган турли хил машғулотлар тизими киради.

Мазкур жараённинг тўғри ва оқилона ташкил этилиши ўқувчиларнинг фанларни пухта ўзлаштиришларига, ўз устида ишлашларига, маънан ва жисмонан баркамол бўлиб вояга етишларига хизмат қилади.

Синфдан ташқарида, аммо

мактаб территориясида ўқувчилар билан биргаликда амалга ошириладиган ишлар синфдан ташқари ишлар деб айтилади. Ўқитувчиларнинг деярли ҳамма қисми синфдан ташқари ишларга жалб этилади ва ундан ўқувчини ҳар томонлама ривожлантиришнинг муҳим воситаси сифатида фойдаланади.

Синфдан ва мактабдан ташқари ишлар ўзига хос хусусиятлари билан машғулотлардан фарқ қилади. Бу иш ихтиёрий характерга эга бўлиб, ўқувчилар ўз қизиқишларига ва лаёқатларига қараб турли хил тўгаракларга қатнашадилар, дарсдан ташқари вақтда ўтказиладиган оилавий ва индивидуал ишларга ҳам ўз истаклари билан иштирок этадилар. Синфдан ташқари ишларнинг турлари ва шакллари хилма-хил бўлиб, ҳар бир мактаб бу ишга истесносиз, ҳамма ўқувчиларни тортиши талаб этилади. Синфдан ва мактабдан ташқари ишларнинг мазмуни ва формаси асосан ўқувчиларнинг қизиқишларига, талабларига ҳамда уларнинг шахсий хоҳишларига ва маҳаллий шароитларига боғлиқ ҳолда амалга оширилади. Ўзбекистон халқ таълими вазирлигининг 1994 йилда чиқарган "Синфдан ва мактабдан ташқари тарбиявий ишлар консепсиялари"да кўрсатиб ўтилган талабларга мувофиқ тарбиявий ишларни ташкил этишда айниқса, ўқувчиларга мустақиллик бериш алоҳида таъкидланган.

Синфдан ва мактабдан ташқари ишларнинг асосий вазифасидан бири -ўқувчилар ҳаётини завқли, сермазмун ва маданий қилиш, уларни жамоа бўлиб яшашга ва ишлашга ўргатишдан иборат.

Синфдан ва мактабдан ташқари ишларнинг шакллари:

а) оғзаки иш усуллари (сиёсий ахборотлар, мажлислар, сборлар, маърузалар, докладлар, мунозаралар, учрашувлар, савол-жавоб кечалари, баҳслар ва х.о.);

б) амалий иш усуллари: култпоходлар, экскурсиялар, спартакиадалар, олимпиадалар, конкурслар ва ўқувчилар фаоллари билан олиб бориладиган ишлар, яшил патруллар, техника ижоди, ёш техниклар тўгараклари, шанбаликлар ва бошқалар;

в)кўргазмалиишусуллари:мактаб музейлари, уруш ва меҳнат қаҳрамонлари галереяси, бадиий ижод воситалари, ташкилий стендлар ва бошқалар.

Синфдан ташқари ишларнинг қуйидаги турлари бўлиб, улар қуйидагиларга бўлинади:

-Оммавий ишлар-ўқувчилар орасида олиб бориладиган сиёсий- оқартув ишлари билан боғлиқ бўлган, ички ва ташқи сиёсатнинг актуал масалалари, сиёсий ахборотлар, суҳбатлар, докладлар, маърузалар: (1-сентябр, 8-март, 9-май, 1-октябр, 21- март ва бошқаларга) бағишланган адабий-бадиий йиғилишлар.

- Маданий-оммавий тадбирлар: – адабий кечалар, спектакллар, бадиий ҳаваскорлик кечалари, ўткир зеҳнлилар тортишувлари ва бошқалар

- Гурухий ишлар: Бунда ўқитувчи синфдан ташқари ўқувчиларнинг маълум бир гурухи билан тарбиявий ишлар ва тадбирларни ўтказиши мумкин.

- Индивидуал ишлар: бунда ўқитувчи ёки тарбиячи ўқувчининг индивидуал ёш хусусиятларига қараб иш тутади. Масалан: тортинчок, пассив ўқувчилар хар бир синфда ҳам учрайди.

Синфдан, мактабдан ташқари ишларда қуйидаги тарбиявий тадбирлар мухим ўринни эгаллайди:

а) сиёсий ахборотлар;

б) ўқувчиларнинг ишлаб чиқариш илғорлари, атоқли кишилар билан учрашувлари;

в) фан тўгараклари;

г) клублар, ўлкани ўрганиш тўгараклари, махсус тўгараклар жисмоний, маданий спорт тўгараклари, мактаб машғулоти,

синфдан ташқари китобхонлик ва бошқалар.

Мактабдан ташқари ишлар махсус ташкил этилган муассасалар томонидан уюштириладиган таълим-тарбиявий ва маданий оқартув ишларидан иборат.

Мактабдан ташқари болалар таълим тарбиявий муассасаларининг бола тарбиясидаги роли беқиёс катта аҳамиятга эга бўлиб, бундай муассасаларни асосан 2-турга ажратиш мумкин:

1.Кенг профилли, яъни кўп хил таълим- тарбия ва маданий оқартув ишларини олиб борадиган болалар таълим-тарбия муассасалари (ўқувчилар уйлари, саройлари, болалар клублари, маданият уйлари қошидаги болалар секторлари, болалар майдонлари, ёзги дам олиш лагерлари ва бошқалар.

2.Тор профилли болалар таълим-тарбия муассасалари – яъни маълум бир соҳада болалар билан таълим-тарбия ва маданий оқартув ишлари олиб борадиган муассасалар: (болалар кутубхоналари, ёш табиатшунослар, болалар театрлари, болалар ижодий уйлари, болалар туризми, экскурсияси, болалар қўғирчоқ театрлари, болалар темир йўллари, болалар стадионлари, спорт майдонлари, музика мактаблари ва бошқалар.

Мактабдан ташқари болалар таълим-тарбия муассасалари, таълим-тарбия соҳасидаги муассасаларгина бўлиб қолмасдан, балки синфдан, мактабдан ташқари олиб бориладиган ишларнинг методик маркази бўлиб ҳам ҳисобланади.

Тарбиявий ишлар системасида мактаб ва мактабдан ташқари муассасалари, жамоатчилик, маҳалла қўмиталари ва оқсоқоллари билан ўзаро ҳамкорлик қилиши ижтимоий ва педагогик жиҳатдан муҳим аҳамиятга эгадир.

Тарбиявий ишларни ташкил этишда ва уларни комплекс ҳал этишда мактаблардаги, гимназия, коллеж ва лицейлардаги

маънавий ва маърифий ишлар ташкилотчиси ҳам алоҳида ўрин эгаллайди. Унинг болалар таълим-тарбия муассасалари, синф раҳбарлари, ва жамоат ташкилотлари билан ўзаро ҳамкорлиги алоҳида аҳамиятга эга.

Умуман, синфдан ва мактабдан ташқари ташкил қилинган ишлар ўқувчилар ҳаѐтидаги тарбиявий фаолиятни тўлдиради. Уларнинг дунѐқараши тўғри шаклланишига ва ахлоқий камол топишига кўмаклашади. Жадидчилик намоѐндаларидан бири А.Авлоний айтганларидек: “Назарий билимларни амалиѐт ишлаб чиқариш билан боғланишга замин яратади, ўқувчиларга бирор мақсадга қаратилган педагогик таъсир вақтини узайтиради, ўқувчиларда фаолликни, ташкилотчиликни тарбиялайди”

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Маънавият туғриликдан бошланади. Иброхим Ҳаққул ва Муртазо Қаршибой суҳбати. // Маънавият ва комиллик. Республика «Маънавият ва маърифат» жамоатчилик маркази. – Т.: 1997. 42-б.
2. Махкамов У.И. Педагогические основы формирования нравственной културы учащихся старших классов: Автореф. дисс.. доктора пед. наук. – Т.:
3. Педагогика ва диний ақидапарастлик // «Ҳалқ таълими» журнали 1999 йил., 1-сон, 77 бет
4. «Маънавият ва маърифат» жамоатчилик маркази, фаолиятини янада такомиллаштириш, ва самарадорлигини ошириш Фармони. 1996. 9 сентябр. // Ўзбекистон Республикаси «Маънавият ва маърифат» жамоатчилик маркази Устави. Тўплам. Тошкент., 1997 й., 18-б.



CHET TILI DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Iskandarova Muniraxon Yunusxon qizi
FDU xorijiy tillar fakulteti nemis tili magistranti
2-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6508295

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida chet tillariga berilgan katta ahamiyat, hamda ularni o'rganish uchun zarur bo'lgan innovatsion texnologiyalar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Chet tili, o'yin, innovatsion texnologiya, texnologik vositalar, usullar, metodlar.*

Аннотация: *В данной статье анализируется активное использование инновационных технологий преподавания иностранных языков в Республике Узбекистан.*

Ключевые слова: *иностранный язык, игры, инновационные технологии, технологические инструменты, методы преподавания.*

Abstract: *This article is devoted to the activ using of innovative technologies in teaching foreign languages in Uzbekistan.*

Key words: *foreign language, games, innovative technologies, technical tools, teaching method.*

KIRISH Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o'sib bormoqda. Har bir sohada taraqqiyot ilgari qadam tashlamoqda. Xususan, ilmfanda ham katta o'zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion texnlogiyalardan foydalanib talabalarga yetkazib berish bugungi kundagi ta'limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonida hayotimizni internetsiz tasavvur qilish qiyin. Chet tilini

o'rganish va o'qitish jarayonida undan unumli foydalanishning eng samarali usullardan hisoblanadi. Internet orqali chet tilida so'zlashuvshilar bilan muloqot qilish imkoniyati paydo bo'ladi. E-mail orqali xat yozishish bilan yozish mashqini takomillashtirish mumkin. Ta'lim jarayoniga zamonaviy — kommunikatsion texnologiyalarni olib kirish ulardan maqsadli va to'g'ri, unumli foydalanish, ular orqali o'quvchida chet tiliga bo'lgan qiziqishni orttirish, o'qitish samaradorligini oshirish eng muhim masala hisoblanadi. Bu orqali ta'limning innavatsion texnologiyalaridan foydalanishga imkoniyat tug'iladi va talab ortadi.

Bugungi kunda innavatsion ta'lim texnologiyalarining bir necha xil usullari mavjud. Ulardan darslarda mavzuni yoritishda keng va turli usullaridan foydalanilsa, darsning samaradorligi yuqori bo'ladi va o'quvchilrning darsga bo'lgan qiziqishlarining ortishi ham ta'minlanadi. Ta'lim jarayoniga yangiliklarni olib kirish va ularni tadbiq qilish orqali ta'lim samaradorligini oshirish nazarda tutiladi. Chet tili darslarining o'qitilishida turli rolli, harakatli o'yinlardan foydalanish ham darsga ham til o'rganishga bo'lgan qiziqishni ortishiga sabab bo'ladi. O'quvchilarning juft yoki kichik guruhlarda ishlashlari orqali esa o'quvchilarning boshqalar bilan kommunikativ aloqa qilishlari uchun yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR Tadqiqot jarayoni amaliy bilimlarning tarixiylik, mantiqiylik, tahlil qilish va sintez usullaridan foydalangan. Ushbu tadqiqot jarayonida chet tili darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning bugungi kundagi ahamiyati obyektiv ravishda ochib berildi. Bugungi kunda Boom taksonomiyasini o'qitish bosqichlari innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda, mantiqiy ketma-ketlikda o'rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR Ta'lim jarayonida grafik organayzerlardan foydalanish mavzuni yoritishda, uni o'quvchilarga yetkazib berishda eng muhim vositalardan

hisoblanadi. Bir mavzuni yoritishda bir necha xil grafik organayzerlardan foydalanish ham mumkin. Chet tilini o'qitishda grafik organayzerlardan foydalanib, mavzuga oid yangi so'zlarni, grammatik qoidalarni tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Grafik organayzerlar orqali bular berilsa, yodda saqlanib qolishi ham oson bo'ladi. Chet tilini o'qitish jarayonida turli xil jadvallardan foydalanishning ham samarasi yuqoridir. Ta'lim jarayonida jadvallardan foydalanib, o'quvchilar ma'lum bir grammatik qoidani,masalan, zamonlardan foydalanib gaplar tuzish, yangi so'zlarni joylashtirib chiqishi mumkin. Chet tilini o'rganishga ehtiyoj yuqori bo'lgan bir davrda, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, innavatsion ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish bu jarayonni samarali bo'lishiga olib keladi. Innavatsion ta'lim texnologiyalarning samaradorligi ularning ta'lim jarayonida to'g'ri va unumli foydalanilganidadir. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, chet tillarini o'rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratib berildi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, "Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta, bejiz emas.

Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir". Ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini" o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori chet tillarini o'rganish imkoniyatlarini kengaytirdi. Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim

maktablari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani to'rt aspectga (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda. Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innavatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnoogiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy taxnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspect (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD disklarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan: – kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin; – ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va cassetalardan foydalanish; – CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu

texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi [1]. Bugungi kunda maktablarda interfaol o'yinlar orqali dars o'tish an'anaga aylanib bormoqda. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish va kuchli bo'lishlarini ta'minlaydi. O'yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o'quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda barqaror o'rnini topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o'yin zamirida umumiy qabul qilingan ta'lim prinsipilari, taktikasi yotishi kerak. O'quv o'yinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O'yinlar jarayonida o'quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg'ulotga qiziqibroq yondashadi va bemalol faoliyat ko'rsatadi. Ta'kidlash lozimki, o'yin eng avallo, o'qitishning bir usulidir. O'quvchilar o'yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g'alaba qozonishga intiladilar, o'qituvchi ular orqali o'quvchiga ta'lim-tarbiya ham beradi. O'quvchi inglizcha o'yin o'ynab, gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi, qiziqadi [2]. Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jarayonida o'quvchi sub'ekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari Amerika Qo'shma Statlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda: – "Muammoli vaziyat yechimi" (Lözung der Problemsituation) bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi qanday yakun topishi o'quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi; – "Quvnoq topishmoqlar" (Fröhliche Rätsel) o'quvchilarga

topishmoqlar o'rgatish Nemis tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar; "Tezkor javob" (schnelle Antwort) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi; – "Chigil yozdi" ("Warm-up exercises") o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o'yinlardan foydalanish [3]; – "Pantomima" (pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo'ladi; – "Hikoya zanjiri" (Geschichtenkette) usuli o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishda yordam beradi; – "Rolli o'yinlar" (Rollenspiele) bu usul darsning barcha tiplarida qo'llanilishi mumkin. Hunarga o'rgatish uchun "Interpretter", "Translator", "Writer", "Poet" kabi kasbdagi kishilar darsda ishtirok etishib o'quvchilar bilan suhbatlashishlari mumkin; – "Allomalar yig'ini" (Eine Sammlung von Gelehrten) U.Shekspir, A.Navoiy, R.Burns kabi shoirlar va yozuvchilarni "taklif qilish" mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so'zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo'lib tarbiyalanishiga yordam beradi; – "Rasmlar so'zlaganda" (Wenn die Bilder sprechen) usuli ancha qulay bo'lib, ingliz tilini o'rgatishda, talaba, o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim; – Kviz kartochkalari (quiz cards) o'quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma talabalar bir vaqtda darsda ishtirok etish imkonini beradi bu esa vaqtni tejaydi [4].

XULOSA

Ko'rib chiqqnimizdek, har bir innovatsion texnologiya o'ziga xos afzallik jihatlariga egadir. Bunday usullarning barchasida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik, o'quvchining ta'lim jarayonidagi faol harakati ko'zda tutiladi [5]. Xulosa qilib aytganda, Nemis tili darslarida innovatsion usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob

berish malakasi shakllanadi.Bunday usullar o'quvchida bilimga ishtiyoq uyg'otadi. O'quvchi darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi. Bu esa o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol sub'yektlariga aylantiradi. Ta'lim tizimi o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqshimizimiz bilan o'z xissamizni qo'shishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI : (REFERENCES)

1. Bekmuratova U. B. "Nemis tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil

2. Отабоева, M. P. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / M. P. Отабоева.

3. N. Q. Xatamova, M.N.mirzayeva. "INGLIZ TILI DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR" (uslubiy qo'llanma), Navoiy, 2006, 40 bet.

4. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. "CHET TILINI O'QITISHDA YORDAMCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH". Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005

5. O'.Hoshimov, I. Yoqubov. "NEMIS TILI O'QITISH METODIKASI" (o'quv qo'llanma) Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2003



SHAXSNING IJTIMOIY MOSLASHUVIGA PSIXOLOGIK AJRALISHNING TA'SIRI

Musinova Nozira Mirzadjanovna
Buxoro davlat universiteti 2-bosqich magistranti
Adizova Dilrabo G'aybulloyevna
Buxoro pedagogika kolleji direktori
https://doi.org/10.5281/zenodo.6508355

Annotatsiya: *ushbu maqolada shaxs ijtimoiylashuv jarayonlari va uning ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi omillar va shaxs shakllanishiga psixologik ajrimlar va oilaviy nizolarning ahamiyati keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *shaxs, ijtimoiylashuv, psixologik jarayon, oila, tarbiya, ijtimoiy muhit.*

Shaxsning ijtimoiylashuvi – ta'lim-tarbiya ta'sirida inson psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me'yor va qoidalarining o'zlashtirilishi, dunyoqarashining boyish jarayoni va natijasi. Ijtimoiylashuv jarayoni o'zining sifat xususiyatlariga, tarkibiga, qonuniyatlariga, omillariga, shart-sharoitlariga, boshqarilishiga va ijtimoiylashgan insonda namoyon bo'lishiga (uning xususiyatlari, sifatlari, o'ziga xosliklari) ko'ra murakkabdir. Ana shu sababli u o'zida turli fanlar tomonidan ko'rib chiqiladigan ijtimoiylashuvning xilma-xil – madaniy, axloqiy, xuquqiy, mehnat, psixologik ko'rinishlarini aks ettiradi. Bu holda shaxsga nisbatan sust ravishda yondashuv kuzatilmaydi, balki u ijtimoiy munosabatlarning va psixologik tizimning sub'yekti sifatida, tajriba egallashda faollik va mustaqillikni namoyon qiluvchi hamda o'z-o'zini shakllantiruvchi, shu bilan birga o'z hayot yo'li uchun javobgarlikni his etuvchi sub'yekt sifatida qaraladi. Fanda odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy om illarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda. Insonning shaxs sifatida

rivojlanishiga ijtimoiy voqealar, tabiiy omillar yoki tarbiya ta'sir etadimi? Bu uch omilning o'zaro munosabati qanday?

Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergan, deydilar. XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi. Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim – bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir.

Progmatizm oqimi va uning vakillari D.D'yul, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni fahat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar. Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar.

Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishi ijtimoiy omil omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar. Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. Shu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Ular ijtiomiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga yetishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit),

shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta’sirini aniqlashda ilg’or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta’limotiga suyaniladi. Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog’liq bo’lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma’naviy boyligi uning munosabatlariga bog’liq, deb hisoblaydilar.

Haqiqatdan ham, shaxs mehnat faoliyati zaminida rivojlanadi, kamolga yetadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa o’z navbatida inson faolligini namoyon etadi. Zero, shaxs ma’lum ijtimoiy tuzum mahsulidir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro’yobga chiqarishi yoki yo’q qilishi mumkin.

Oilaviy ajrimlarning yosh avlodlarning ijtimoiylashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ya'ni unga jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida faoliyat yuritish imkonini beruvchi ma’lum bilimlar, me’yorlar va qadriyatlar tizimini o‘zlashtirish jarayoniga sa’lbiy ta’sir ko’rsatadi. Oila jamiyatning boshlang'ich birligi sifatida shaxsning ijtimoiylashuv jarayonining asosiy bo'g'inidir. Oilaning daromadi, ijtimoiy mavqei, ma'lumoti, ota-onaning kasbi - ko'p jihatdan bolaning hayot yo'lini oldindan belgilab beradi. Uning ijtimoiylashuviga ota-onalar amalga oshiradigan tarbiya funktsiyasidan tashqari, oiladagi ichki muhit ham ta'sir qiladi va bu ta'sirning ta'siri shaxs tuzilishida sinib, yoshga qarab to'planadi.

Shunday qilib, oila bolaning shaxsiyatining ijtimoiy ahamiyatli qadriyatlari va munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishda, uning sotsializatsiyasida yetakchi institut bo'lib qolaveradi. Xulosa qilib aytganda oila - bu shaxsni ijtimoiylashtirishning eng muhim instituti. Aynan oilada inson ijtimoiy o'zaro munosabatlarning birinchi tajribasini oladi. Ma'lum vaqtdan beri oila odatda bunday tajribani olish uchun bolaga yagona joy bo'lib kelgan. Keyin bolalar bog'chasi, maktab kabi ijtimoiy muassasalar inson hayotiga kiradi. Biroq, shu vaqtning o'zida ham

oila shaxsni sotsializatsiya qilishning eng muhim omillaridan biri bo'lib qolmoqda. Oila shaxsning asosiy hayotiy tarbiyasining modeli va shakli sifatida qaralishi mumkin. Oilada sotsializatsiya maqsadli tarbiya jarayoni natijasida ham, ijtimoiy ta'lim mexanizmiga ko'ra ham sodir bo'ladi. O'z navbatida, ijtimoiy ta'lim jarayonining o'zi ham ikkita asosiy yo'nalish bo'yicha boradi. Bir tomondan, ijtimoiy tajribani egallash bolaning ota-onalar, aka-uka va opa-singillar bilan to'g'ridan-to'g'ri o'zaro aloqasi jarayonida sodir bo'ladi, boshqa tomondan, ijtimoiylashuv boshqa oila a'zolarining ijtimoiy o'zaro ta'sirining xususiyatlarini kuzatish orqali amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. V. Karimova. Ijtimoiy psixologiya va amaliyot. T.: 2009.
2. V. Karimova, O. Xayitov. Shaxsning ijtimoiylashuv masalasi. T.: 2007
3. Мельникова Н.А. Шпаргалка по социальной психологии: ответы на экзаменационные билеты. — М.: Аллель. 2000.
4. Мокчанцев Р., Мокчанцева А.Социальная психология. Издательства: Сибирское соглашение, Инфра. — М.: 2001.
5. Семечкин Н.И. Социальная психология на рубеже: история, теория, исследования. — М.: 2001.

ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ ЗАВИСИМОСТЬ БИОХИМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ В КРОВИ И МОЧЕ, ХАРАКТЕРИЗУЮЩАЯ АДАПТАЦИОННЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ У РЕГБИСТОК В ПРОЦЕССЕ ТРЕНИРОВОК И СОРЕВНОВАНИЙ.

Галкин Олег Викторович - магистр кафедры «Теория и методика гандбола, регби» УзГУФКС
Кариева Райхон Рустамовна – доцент кафедры «Теория и методика гандбола, регби» УзГУФКС
https://doi.org/10.5281/zenodo.6508403

Аннотация. *В статье представлены медико-биологические исследования по определению содержания сахара в крови и катехоламинов в моче, во всех периодах подготовки регбисток, факторы которых свидетельствуют об адаптации к физическим нагрузкам.*

Ключевые слова: *физические нагрузки, периоды подготовки, адаптация, биохимические показатели: глюкоза, экскреция катехоламина, адреналин, норадреналин.*

Мировые тенденции развития регби связаны с неуклонным ростом спортивных достижений и увеличением конкуренции на мировой спортивной арене. В современном регби происходит процесс переоценки моделей развития регби на всех его уровнях. Данный процесс связан с увеличением эффективности тренировочного и соревновательного процессов и все больше приобретает характер перенапряжения со свойственным им высоким накалом физических и эмоциональных нагрузок, которая требует прежде всего, проведения разносторонних медико-биологических исследований.

Проблемной областью модификации процесса подготовки регбисток является функциональная подготовка – развитие физиологических механизмов и свойств, функциональных возможностей организма, лежащих

в основе их специфической спортивной деятельности.

В связи с этим нами было предпринято исследование по определению содержания сахара в крови и катехоламинов в моче регбисток в процессе тренировки и соревнований.

Полученные результаты и их анализ показали, что у всех регбисток в исходном состоянии, во все периоды подготовки, уровень сахара в крови находится в пределах нормы (3,2-5,3 ммоль/л – у женщин).

Четко вырисовывающимся фактом, свидетельствующим об адаптации к физическим нагрузкам по мере приближения к соревновательному периоду, является снижения экскреции катехоламинов с мочой в состоянии покоя. Если содержания адреналина у регбисток в общеподготовительном периоде находится в пределах физиологических норм (2-31 мкг/день), то в специально-подготовительном периоде оно было ниже 20,4%, а в предсоревновательном периоде – на 59,3%. При рассмотрении изменения экскреции норадреналина (норма 29-151 мкг/день) выявлена подобная же картина.

Результаты анализа наших данных дают основание считать, что от периода к периоду происходит экономизация в деятельности различных физических функций.

Наблюдаемый эффект, как правило, в литературе связывается с ростом тренированности спортсменов и является следствием адаптации к физическим нагрузкам. Тренировочные нагрузки в общеподготовительном периоде у регбисток не вызывали каких-либо изменений экскреции адреналина, содержания сахара в крови у спортсменок остается высоким. В специально-подготовительном периоде отмечалось достоверное увеличение, как экскреции адреналина, так и норадреналина у всех регбисток.

Данные полученные в определённом периоде подготовки,

показали, что в этом периоде происходит экономизация адреналина после физических нагрузок, которая не столь выражена, как в предыдущем периоде, а экскреция норадреналина остается высокой.

Приведенные результаты свидетельствуют о зависимости физической нагрузки в период высокой работоспособности, и они могут служить одним из критериев оценки эффективности тренировочного процесса или показателей недостаточной интенсивности тренировок.

Соревновательная нагрузка вызвала выраженную симпатоадреналовую систему, что подтверждается увеличением экскреции, как адреналина, так и норадреналина.

Содержание сахара в крови в это время значительно увеличивалось, а это явление еще раз подтверждает, что симпатоадреналовая система имеет важное значение в обеспечении гомеостатических механизмов организма, мобилизуя энергетические ресурсы и повышая его приспособительные свойства.

Литература

1. Никулин, Б.А. Биохимический контроль в спорте / Б.А. Никулин, И.И. Родионова. – М. : Сов.спорт. – 2011. – 232 с.

2. Орѐл, Н. М. Функциональная биохимия: пособие. В 2 ч. Ч.1. Функциональная биохимия крови, печени, почек, мышц /Н. М. Орѐл. – Минск: БГУ, 2015. – _151 с.

3. Потапова Т.В. Адаптивно-компенсаторные реакции организма юных спортсменов на нагрузки прогрессивной тренировки и восстановления / Т.В. Потапова, В.В. Эйрих, А.М. Мкртумян / под науч. Ред. А.П. Исаева. – Тюмень: Изд-во ТГУ, 2008. – 344 с

4. Солодков А.С. Физиология человека. Общая. Спортивная. Возрастная: Учебник / А.С. Солодков, Е.Б.Сологуб. - М.: Олимпия Пресс, 2005. - 528 с.

5. Холодов Ж.К. Теория и методика физического воспитания и спорта: Учеб. пособие / Ж.К. Холодов, В.С. Кузнецов. - М.: Академия, 2004. - 480 с.

6. Чанчаева Е.А. Физиология физического воспитания и спорта: учебно-метод. комплекс / Е.А. Чанчаева. - Горно-Алтайск: РИО ГАГУ, 2007. - 97 с.



MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA STEAM O’QITISH TEXNOLOGIYASI

Abdumajitova Sayoxat Abduqosimovna
Termiz davlat universiteti
Ta’lim -tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta’lim) magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.6509275

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida STEAM o’qitish texnologiyasi haqida so’z borgan. STEAM ta’limida bolalarning amaliy ko’nikmalarini rivojlantirishga katta e’tibor berilishi natijasida ularning hamkorlikda ishlash, ijodiy qobiliyati rivojlanadi, irodasi mustahkamlanadi. Aynan shunday bilim va ko’nikmalar o’qitishning asosiy vazifasi bo’lib, butun o’qitish tizimi shunga intiladi.*

Kalit so’zlar: *STEAM dasturi, maktabgacha ta’lim tashkiloti, o’qitish texnologiyasi, loyiha, fan, "F. Froebel, didaktik tizimi , Jonli va jonsiz tabiat , o'quv modul, "LEGO-konstruktsiya" , Matematik rivojlanish, Robotexnika.*

STEAM o’qitish texnologiyasi - bu maktabgacha yoshdagi bolalar uchun fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikaning kombinatsiyasidir. Maktabgacha ta’limda STEAM o’qitish texnologiyasidagi san'atni kiritish va ijodiy fikrlashga urg'u berish,yurtimizda har qanday buyuk innovatsion mutafakkirlar yetishib chiqishi uchun, ayniqsa maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni ta’lim va tarbiyasi uchun juda muhimdir.

STEAM - bu STEM afzalliklaridan foydalanishning ajoyib usuli va endi ushbu printsiplarni san'at orqali birlashtirish maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yangi bir o’zgacha muhit- rivojlantiruvchi muhit yaratila boshlanadi. STEAM-ni yangi o'quv dasturiga kiritish orqali u maktabgacha yoshdagi bolalarga kelajakda muhim sohalarda o'qishlarida badiiy elementlar va dizayn tamoyillari bilan bog'lab yangi innovatsion natijalarga erishishlariga imkon beradi.[41]

[41] Конюшенко С. М. STEM vs STEAM — образование : изменение понимания того, как учить / С. М. Конюшенко, М. С. Жукова, Е. А. Мошева // Известия Балтийской

Ijodkorlikni o'z ichiga olgan faoliyat ishlarini topshiradigan maktabgacha yoshdagi bolalar muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlashning yuqori va muvaffaqiyatli darajalarini ko'rishlari va maktab ta’limiga borganlarida o’quv fanlarini yaxshiroq o’zlashtirishlarini ko'rishlari mumkin.

- Taklif etilayotgan STEAM o’qitish texnologiyasi kognitiv faoliyat jarayonida intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish va ilmiy-texnik ijodkorlikka jalb etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning yangi rivojlantiruvchi muhit yaratish ta’lim texnologiyasidir.
- maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishiga ta'sir qiladi;
- tarbiyachiga o'yin rejimida maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'lim, tarbiyalash va rivojlantirishni birlashtirishga imkon beradi;
- kognitiv faollikni shakllantiradi, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashga yordam beradi, muloqot va birgalikda ijod qilish ko'nikmalarini shakllantiradi;
- o'yinni tadqiqot va eksperimental faoliyat bilan birlashtiradi;
- o'yin usulida bolalar hisoblash, o'lchash, solishtirishni o'rganadilar;
- zarur matematik, muhandislik malakalarini egallashga yordam beradi.[42]

Ko'pgina mamlakatlarda STEAM ta'limi bir necha sabablarga ko'ra ustuvor hisoblanadi:

1. Yaqin kelajakda dunyoda va shu jumladan O’zbekistonda muhandislar, yuqori texnologiyali sohalarda mutaxassislar va boshqalar keskin yetishmaydi.

государственной академии рыбопромыслового флота: психолого-педагогические науки. — 2018 — № 2 (44). — С. 99—103.

[42] Chanthala Ch. Instructional designing the STEM education model for fostering creative thinking abilities in physics laboratory environment classes / Ch. Chanthala, T. Santiboon, K. Ponkham // Journal 5th International conference for science educatorsand teachers (ISET 2017). — 2018

2. Yaqin kelajakda bizda tabiiy fanlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan texnologiya va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan kasblar paydo bo'ladi, xususan, bio- va nanotexnologiyalar bo'yicha mutaxassislarga talab katta bo'ladi .

3. Mutaxassislar texnologiya, fan va texnikaning keng sohalari bo‘yicha har tomonlama tayyorgarlik va bilimlarni talab qiladi.

“Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida STEAM o’qitish texnologiyasi erta rivojlanish omili" sifatida alohida ta’lim moduli ham ishlab chiqilgan. U quyidagilarni o’z ichiga oladi. Mazmuni bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim texnologiyasi:

O'quv moduli "F. Froebelning didaktik tizimi ".

"Jonli va jonsiz tabiat bilan tajriba o'tkazish" o'quv moduli.

"LEGO-konstruktsiya" o'quv moduli.

"Matematik rivojlanish" o'quv moduli.

"Robotexnika" o'quv moduli.

Multstudiya “Men dunyoni yarataman” o‘quv moduli [43].

"F. Froebelning didaktik tizimi ". Strukturaviy-o'quv moduli ikkita kontent blokidan iborat. Bular asl manbaga to'g'ri keladigan "1-sonli fazoviy fikrlashni rivojlantirish to'plamlari" (F. Froebel tizimi bo'yicha) va "2-sonli fazoviy fikrlashni rivojlantirish to'plamlari" (F. Froebel tizimi) - bolani stolning cheklangan maydonidan xonaning o'yin maydoniga o'tkazadigan yumshoq zamin modullari ko'rinishidagi materiallar. Boshqa fazoda yumshoq modullar bilan ishlash kosmosdagi ob'ektga qarash nuqtasi sifatida "perspektiv" kontseptsiyasini, shuningdek, ob'ektning fazoning berilgan qismida hosil bo'lgan proyeksiyasini (tasvirini) mashq qilish imkonini beradi. Bolaning g'oyalari asta-sekin moslashuvchanlikka, harakatchanlikka ega bo'ladi, u vizual

[43] The sound of STEAM : Acoustics as the bridge between the arts and STEM /C. B. Goates, J. K. Whiting, M. L. Berardi, K. L. Gee, T. B. Neilsen // Journal 172nd Meeting of the Acoustical Society of America. — 2017

tasvirlar bilan ishlash qobiliyatini egallaydi: ob'ektlarni turli fazoviy pozitsiyalarda tasavvur qilinadi, ularning nisbiy pozitsiyasini aqliy ravishda o'zgartiradi.

"Jonli va jonsiz tabiat bilan tajriba o'tkazish". O'quv moduli bolalarni suv, havo, jonsiz va tirik tabiat ob'ektlari, optik hodisalar bilan tanishtirishni tashkil qilish imkonini beradi.

Modulda taklif qilingan eksperimentlar to'plami bolalarni atrofdagi dunyoning turli xususiyatlarini o'rganishga jalb qilishga yordam beradi.

"LEGO-konstruktsiya". Dizayn - bu nafaqat amaliy ijodiy faoliyat , balki yangi ob'ektlarni (chizish, syujet, matn va boshqalar) yaratishga qaratilgan boshqa faoliyat turlarida (grafik, o'yin, nutq) namoyon bo'ladigan universal aqliy qobiliyatdir .O'yin va qurilishni birlashtirgan dunyodagi eng mashhur zamonaviy dizaynerlardan biri LEGO dizaynerlaridir.

LEGO (- "yaxshi o'ynash") - turli xil narsalarni yig'ish va modellashtirish uchun qismlar to'plami bo'lgan o'yinchoqlar seriyasi.

"Matematik rivojlanish". Ushbu o'quv modulining maqsadi bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik rivojlanish muammolarini kompleks hal qilishdir. U maktabgacha ta'lim tashkilotining asosiy ta'lim dasturining majburiy qismiga mazmunli qo'shimcha sifatida va kognitiv yo'nalishdagi studiya-to'garak faoliyatida o'quv faoliyati ishtirokchilari tomonidan shakllantirilgan dastur qismida foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, STEAM bolalarni tajribalar o’tkazish, modellarni konstruktsiyalash, musiqa va filmlarni mustaqil yaratish, o’z g’oyalarini amalga oshirish va mahsulot yaratishni rag’batlantiradi. O’qitishga bunday yondashuv bolalarga nazariy bilim va amaliy ko’nikmalarini samarali chog’ishtirish imkonini beradi. Bolalarning ijodkorligini oshiradi, yuqori malakali, zamon talabiga mos kadrlar

tayyorlashda mustahkam poydevor bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Davis H, A teach yourself course in Educational Technology instruction, London, Francis Lincoln Ltd, 2010. 289p.

2.Deacon C. Educational Technology in the third world schools, New York, Macmillan, 2011. 300p.

3.Chanthala Ch. Instructional designing the STEM education model for fostering creative thinking abilities in physics laboratory environment classes / Ch. Chanthala, T. Santiboon, K. Ponkham // Journal 5th International conference for science educatorsand teachers (ISET 2017). — 2018

4.The sound of STEAM : Acoustics as the bridge between the arts and STEM /C. B. Goates, J. K. Whiting, M. L. Berardi, K. L. Gee, T. B. Neilsen // Journal 172nd Meeting of the Acoustical Society of America. — 2017

5. Конюшенко С. М. STEM vs STEAM — образование : изменение понимания того, как учить / С. М. Конюшенко, М. С. Жукова, Е. А. Мошева // Известия Балтийской государственной академии рыбопромыслового флота: психолого-педагогические науки. — 2018 — № 2 (44). — С. 99—103.

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ORQALI TA'LIM SAMARADORLI OSHIRISH

Matyoqubova Ro‘za Ulug'bekovna
Xorazm viloyati Urganch tumanidagi 24-sonli maktabning Boshlang‘ich ta'lim o'qituvchisi
Qutumova Gulyor Bahtiyorovna
Xorazm viloyati Urganch tumanidagi 24-sonli maktabning Boshlang‘ich ta'lim o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6509315

Annotatsiya: *Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi.*

Kalit so’z: *Ta'lim, mustaqil ishlash, savodxonlik, ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalar, fikrlash, tahlil qilish.*

Ta'lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o‘zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo‘lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g‘oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, og‘zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g‘oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o‘rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo‘ladi.

Ulug‘ donishmandlardan biri «... kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o‘qit», degan ekan. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o‘zgarish bo‘ldi, desak xato bo‘lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg‘urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko‘ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo‘lishlari kerak, degan g‘oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko‘rsatadi.

Ma'lumki, ta'limda ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo‘llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda **«Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o‘yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so‘zni men aytay»** kabi zamonaviy texnologiyalar qo‘llanmoqda.

Dars mashg‘ulotlarida o‘yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O‘yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o‘quvchilarining o‘yin-topshiriqlarni bajarishga o‘rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o‘rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog‘liq bo‘lishi kerak.

Ta'limda o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglash va shu fikrni og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o‘rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo‘lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o‘rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o‘rganiladi.

Bugungi kun o‘qituvchidan ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o‘quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg‘ulotlarida interfaol metodlarni qo‘llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo‘llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O‘ylaymizki, u o‘quv mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o‘quvchilarni o‘z yo‘nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko‘nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko‘makchilardan biriga aylanadi.

«Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi ...) ortiqcha» metodi

O‘quvchilar mantiqiy tafakkur yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo‘llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- O‘rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;
- hosil bo‘lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo‘lgan to‘rtta (beshta, oltita, ...) va taalluqli bo‘lmagan bitta tushunchaning o‘rin olishiga erishish;
- o‘quvchilarga mavzuga taalluqli bo‘lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;
- o‘quvchilarni o‘z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o‘tishlari hamda ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni asoslashlarini talab etish lozim).

Mazkur metod o‘quvchilardan o‘rganilayotgan mavzu (yoki bo‘lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi.

Metodni qo‘llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o‘qituvchi o‘zaro teng nisbatda mavzuga (bo‘lim, bob) oid va oid

bo‘lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;

- o‘quvchilar mavzuga (bo‘lim, bob) oid va oid bo‘lmagan asosiy tushunchalarn aniqlaydilar va daxldor bo‘lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;
- o‘quvchilar o‘z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o‘quvchilar tomonidan mavzuning puxta o‘zlashtirilishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

1-sinf darsligidagi «Oshxona jihozlari», «Qushlar», «Uy hayvonlari va parrandalar» kabi mavzularini o‘rganishda yangi mavzuni mustahkamlash uchun mazkur metodni qo‘llash ijobiy natija beradi. Bunda mavzuga oid to‘rtta va taalluqli bo‘lmagan (ortiqcha) bitta so‘z (tushuncha, fikr) beriladi.

O‘quvchilar ana shu so‘zni (tushuncha, fikr) aniqlaydilar.

Masalan, 1-sinf darsligidagi 1-mashqda berilgan topshiriqni bajarishda quyidagicha qo‘llash mumkin. Yozuv ekranda ko‘rsatiladi. O‘quvchilar ortiqcha so‘zni aniqlashadi.

Uy hayvonlari: *sigir, qo‘y, toshbaqa, ot, it.*

So‘ng bu so‘zlar ishtirokida gap tuzish topshirig‘i beriladi va tuzilgan gaplar asosida axloqiy tarbiya beriladi.

Namuna: *Ot - insonning eng ishonchli do‘sti.*

O‘quvchilar tomonidan tuzilgan gaplar asosida o‘quvchilar qalbida ona tabiatga muhabbat uyg‘otiladi, uy hayvonlariga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lishga o‘rgatiladi.

Bizningcha, ta'limiy o‘yinlarga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Ta'limiy o‘yinlar o‘quvchilar yoshiga mos bo‘lishi kerak;
2. O‘yinlar o‘tilayotgan mavzu mazmun-mohiyatiga mutanosib bo‘lishi lozim;
3. Ta'limiy o‘yinlarni o‘tkazish vaqti aniq belgilanishi shart;
4. Ta'limiy o‘yinlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi kerak;

5. Ta'limiy o'yinlarning o'tkazilish maqsadi, ahamiyati belgilanishi lozim.

Yuqoridagi talablarga amal qilingandagina dars samaradorligi ortadi va zamonaviy texnologiyalar ta'lim samaradorligiga xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyot:

1. Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – T., Fan, 2012
2.. Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T: Fan va texnologiya, 2008

QIZIL-OLMA SHAXTASIDA BURGALASH PORTLATISH ISHLARI

Abdullayev Farxod
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
Magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.6509587

Annotatsiya: *Konchilik ishi insoniyat faoliyatining asosiy ko'rinishlaridan biri bo'lib, hayot darajasi va sivilizatsiyaning o'sishini ta'minlaydi. Qazib olish tizimining yuqori unumdorligini va kon ishlari xavfsizligini tashkil etish uchun ishlar ketma –ketligining tug`ri tashkil etilishi, kesuvchi, ochuvchi va tajribaviy qidiruv kon laximlarini tugri olib borish natijasida maksimal unumdorlikga erishish mumkin.*

Kalit so'z: *Kon ishlari, burg'ilash, xom ashyo, qurilish materiallari, "Qizilolma" koni, issiqlik, portlatish va elektrogidravlik, sanoat, mexanizm.*

Annotation: *Mining is one of the main activities of humankind and provides a standard of living and the growth of civilization. Maximum productivity can be achieved as a result of the correct organization of the sequence of works to ensure high productivity of the mining system and safety of mining operations, the correct conduct of cutting, opening and experimental prospecting.*

Keywords: *Mining, drilling, raw materials, construction materials, Kyzylolma deposit, heating, blasting and electrohydraulics, industry, machinery.*

KIRISH

Kon ishlari sanoat ishlab chiqarishning yetakchi tarmog'i sifatida konlarni razvedka qilish, ularni qazib chiqarish, qazib olingan xom ashyoni dastlabki qayta ishlash, konchilik korxonalari qurish va turli vazifalarni bajarishga mo'ljallangan yer osti inshootlarni barpo etish kabi ishlarni o'z ichiga oladi.

Yuqorida sanab o'tilgan xom ashyo va minerallarning dunyo miqiyosida qazib chiqarish, ekspertlar

hisobi bo‘yicha 160-180 mlrd. tonna kon massasini tashkil qiladi.

